2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

YANGI O‘ZBEKISTON

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 198 (1797), 2026-yil 24-sentabr, payshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

ANDIJONDA ISLOHOTLARNING USTUVOR YO‘NALISHI: INNOVATSION YECHIM, STRATEGIK TRANSFORMATSIYA VA IQTISODIY YUKSALISH

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 23-sentabr kuni Andijon viloyatiga tashrif buyurdi.





Mamlakatimiz yetakchisining Andijon viloyatiga tashrifi tig‘iz ish rejimi asosida sermahsul va samarador bo‘ldi. Ayni jihat xalqimiz quvonchiga quvonch qo‘shdi. Bu xususida keyinroq to‘xtalamiz...

Andijon mamlakatimizning kunchiqar hududi. Quyoshni birinchi bo‘lib qarshi oladigan andijonlikning chehrasi ham, qalbi ham doim yorug‘. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshlab bergan keng ko‘lamli islohotlar sabab viloyat ahlining yo‘li ham ravshan bo‘lib, orzulari amalga oshmoqda. Keyingi yillarda viloyatda tadbirkorlik jadal rivojlandi. Bu o‘rinda “rivojlandi” degan so‘zining o‘zi kamlik qiladi. Zero, barcha sohaga ilm, innovatsion yondashuv kirib keldi. Ayni jihat viloyat salohiyatidan samarali foydalanib, yangi O‘zbekistondagi yangilanishlar shiddatiga mos tarzda olg‘a intilish imkonini bermoqda. Shu o‘rinda hududning geografik joylashuvi haqida yana bir muhim faktni esga olish zarur. Ya’ni Andijon hudud jihatdan kichik va aholisi eng zich joylashgan viloyat hisoblanadi. Bu ham viloyat ahli uchun ko‘proq izlanish, o‘z ustida ishlash talabini qo‘yadi. Mamlakat yetakchisining uzoqni ko‘zlagan siyosati sabab hududiy jihatdan bir oz murakkab bo‘lgan zamin mislsiz natijalarga erishmoqda.

Ma’lumki, katta mablag‘ aylanmasi bor joyga mehmonlar ham ko‘p keladi. Negaki bunday zaminda xalqaro hamkorlik mustahkamlangan bo‘lib, tadbirkorlik keng quloch ochadi. Sayyohlik ko‘lami oshadi. Shu ma’noda, Andijon xalqaro aeroporti zamonaviy qiyofa kasb etishi muhim vazifa hisoblanadi. U shunchaki mehmonlarni kutib olish va kuzatib qo‘yish manzili emas, balki katta iqtisodiy loyihalarga jadallik baxsh etadigan strategik obyekt.

Davlatimiz rahbari viloyatga tashrifini Andijon xalqaro aeroportining qurilayotgan terminali bilan tanishishdan boshladi. Keyingi yillarda vodiy viloyatlarining logistik imkoniyati ancha kengaydi. Kuni kecha Toshkentdan Andijonga tezyurar poyezd qatnovi ham yo‘lga qo‘yildi. Aeroport zamonaviy qiyofaga keltirilgach, viloyatga boshqa hududlar, xorijiy davlatlardan keladiganlar uchun yanada qulay muhit yaratiladi. Buning uchun birinchi bosqichda aeroport infratuzilmasi tubdan yangilandi. Uchish-qo‘nish yo‘lagi 3,3 kilometrgacha uzaytirildi. Bu katta hajmdagi havo kemalarining ham bemalol uchib-qo‘nishiga imkon yaratadi. Bo‘lg‘usi qamrov hisobga olinib, 10 ta havo kemasiga mo‘ljallangan to‘xtash joylari va yo‘laklari qurildi. Muhimi ushbu ishlarda yuqori darajadagi sifatga alohida e’tibor berilmoqda. Uchish-qo‘nish yo‘lagiga yotqizilgan sement-beton qoplamasi 50 yilgacha xizmat qiladi. Aeroportda yuqori aniqlikda ishlaydigan zamonaviy yoritish-signal tizimi o‘rnatildi. Germaniya texnologiyasi asosida ishlaydigan tizim sabab ko‘rish masofasi 300 metrgacha qisqarganda ham samolyotlar qo‘na oladi. Umuman olganda, mazkur ishlar sabab Andijon xalqaro aeroporti katta havo kemalarini ham cheklovlarsiz qabul qila oladigan bo‘ldi.

Hozir rekonstruksiya ishlarining ikkinchi bosqichi doirasida ikki qavatli zamonaviy terminal binosi qurilyapti. Ushbu terminal ishga tushgach, aeroportning yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish salmog‘i besh barobarga oshadi.

Davlatimiz rahbariga aeroportni rivojlantirish konsepsiyasi taqdimot qilindi. Prezidentimiz zamonaviy terminal binosini belgilangan muddatda va sifatli qurib bitkazish bo‘yicha mas’ullarga topshiriqlar berdi. Mazkur ishlar andijonliklar va viloyat mehmonlari uchun transport qulayligini oshirishi ta’kidlandi. Aeroport atrofida zamonaviy servis obyektlarini rivojlantirish va xizmatlar sifatini oshirish yuzasidan ko‘rsatmalar berildi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, Andijon viloyatida barcha sohaga ilmiy yondashib, zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga jiddiy e’tibor berilmoqda. Buni tashrifning keyingi manzili bo‘lgan “Eco Cotton” korxonasi faoliyati misolida ham ko‘rish mumkin.

Davlatimiz rahbari Andijon tumanidagi trikotaj mahsulotlari ishlab chiqaruvchi mazkur korxona faoliyati bilan tanishdi. Hozir ushbu korxonada mahalliy xomashyodan to‘qimachilik mahsulotlari tayyorlanmoqda. Ekologik toza, xalqaro standartlarga mos bo‘lgan ushbu mahsulotlar nafaqat yurtimiz balki, xorijda ham o‘z xaridorlariga ega.

Prezidentimiz joriy yil 29-iyun kuni “Paxta-to‘qimachilik sohasida moliyaviy barqarorlikni oshirish hamda tolani chuqur qayta ishlashni qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorni imzolagan edi. Mazkur loyiha ushbu huquqiy hujjat ijrosi doirasida amalga oshirildi. Natijada 1 mingta doimiy ish o‘rni yaratildi. Shuningdek, korxonada dual ta’lim tizimi ham yo‘lga qo‘yilgan. Yoshlar nazariy bilimlarni ishlab chiqarish amaliyoti bilan uyg‘un holda o‘zlashtirmoqda.

Ana shu o‘zlashtirish, ish o‘rganish jarayonida daromad topish imkoniga ham ega bo‘ladi. Bunday jihatlar albatta, jamiyatda ertangi kunga bo‘lgan ishonchni oshiradi. Qolaversa, yoshlar bandligi ta’minlanib, ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga yechim topiladi. Xalqimiz ko‘ksini g‘ururga to‘ldiradi.

Korxonaga kirib kelishingiz hamon o‘sha sururni his etasiz. Zamonaviy rusumdagi avtomatlashtirilgan konveyer uskunalarini ko‘rib ko‘z quvnaydi. Ishlab chiqarish jarayoni raqamli boshqaruv tizimi orqali nazorat qilinishi mahsulotning barqaror sifatini va adolatli yondashuvni ta’minlaydi.

Yana bir yangilik, korxonada sun’iy intellekt yordamida ishlaydigan tikuv dastgohlari o‘rnatilgan. Aqlli tizim mato turiga qarab tikuv jarayonini real vaqt rejimida avtomatik sozlaydi. Choklarni yuqori aniqlikda hamda nuqsonsiz tikadi. Sinov tariqasida ishlayotgan gumanoid robotlar esa sohadagi istiqbolli loyihalardan darak beradi. Ishlab chiqarish jarayoni ilmiy innovatsiya asosida tashkil etilgan korxonaning sifatli mahsulotlari Rossiya, Belarus, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ruminiya va Moldova bozorlariga yetkazib berilyapti. Shuningdek, Turkiya, Vyetnam, Xitoy va Hindistonning yetakchi ishlab chiqaruvchilari bilan raqobatlasha oladigan mazkur brendning xaridorlari ko‘payib bormoqda. Gap ilmiy yondashuv haqida ketganida ekologik talablarga ham samarador yechim topilganini ta’kidlash zarur. Jumladan, ishlab chiqarishdan chiqqan chiqindilar qayta ishlanadi. Shu tariqa, ularning atrof-muhitga zarari kamayadi.

Yana bir muhim jihat. Jahon bozoridan munosib o‘rin egallashda ishlab chiqarish hajmi ham sifati kabi muhim ahamiyatga ega. Korxona yiliga 30 turdagi 9,4 million dona trikotaj mahsuloti ishlab chiqarish quvvatiga ega. Yillik eksport salohiyati esa 10,5 million dollarni tashkil etadi.

Davlatimiz rahbari korxona ishchilari bilan samimiy muloqot qildi. Shu yerning o‘zida viloyatda yoshlar bilan ishlash, ularni kasb-hunar va xorijiy tillarga o‘qitish hamda bandligini ta’minlash, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlar va rejalar to‘g‘risida axborot berildi.

Andijonliklar har tong quyoshni qarshi olar ekan, undan bir chimdim nurni qalbiga joylaydi. So‘ng uni yurtimizning boshqa hududlari sari kuzatib qo‘yadi. Ayni jihat sabab quyoshli vaqt boshqa viloyatlarga ko‘ra kamroq. Odil tabiat buning o‘rnini qoplash uchun hududga tog‘larni, ular bag‘ridan jilg‘a bo‘lib keladigan katta soylarni taqdim etgan. Ayni jihat viloyatning o‘ziga xos drayver qismi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Prezidentimiz tashrifining navbatdagi manzilida Andijon tumanida kichik gidroelektr stansiyalari uchun zarur uskunalar ishlab chiqarish bo‘yicha amalga oshirilayotgan loyiha bilan tanishdi. Mamlakatimiz yetakchisining tegishli qarori ijrosi doirasida “Andijon Jinlun yangi energiya” korxonasi tashkil etilmoqda.

Xalqaro maydondagi global o‘zgarishlar, yuksak texnik taraqqiyot bor imkoniyatdan samarali foydalanish talabini qo‘ymoqda. Masalan, tog‘lar bag‘rida yuzlab, ehtimol minglab jilg‘alar bor. Andijon viloyatida ham bu borada katta imkoniyat yetarli. Xususan, Katta Farg‘ona kanalining barqaror suv oqimida mikro va kichik GESlar qurish mumkin. Bu “yashil” energiya quvvatlarini oshirishga xizmat qiladi. Muhimi, ulardan energiya olish uchun ba’zan suv yo‘lini to‘sish ham shart bo‘lmaydi. Shunchaki, o‘sha joyga mos keladigan texnologiya o‘rnatilsa bas. Markaziy Osiyoda esa ana shunday ixcham va samarador texnologiyaga ehtiyoj katta. Lekin shu vaqtgacha mintaqada ularni sanoat miqyosida ishlab chiqarilmagan. Yangi loyiha ana shu ehtiyojni qoplashga xizmat qiladi.

Umumiy qiymati 20 million dollarlik korxona 2027-yilda to‘liq quvvat bilan ishga tushiriladi. O‘shanda yiliga 100 ta kichik GES majmuasi, mikrogidroenergetika uskunalari, dastgoh va elektr jihozlari ishlab chiqariladi. Bu yiliga 70 milliard so‘mlik mahsulot degani. Loyiha doirasida 200 ta yangi ish o‘rni yaratiladi. Korxona mahsulotlarini Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikistonga eksport qilish reja qilingan.

Yana bir muhim jihat, maqsad faqat mahsulot chiqarish va sotishdan iborat emas. Balki aholi va sanoat korxonalarini barqaror, arzon, ekologik toza elektr energiyasi bilan ta’minlash nazarda tutilmoqda. Buning uchun Andijon viloyatida bir nechta mikro GESlar quriladi.

Prezidentimiz tashrifi doirasida yangi investitsiya loyihalarini ishga tushirish va ularning qurilishiga start berish marosimida ishtirok etdi. Marosimda umumiy qiymati 9 milliard 400 million dollar bo‘lgan 206 ta loyiha qamrab olindi. Shundan 2 milliard 50 million dollarlik 98 ta loyiha ishga tushirildi. Mana shu faktning o‘ziyoq viloyatga kirib kelayotgan sarmoyaning nechog‘liq katta marra olganini anglatadi. Yana 7 milliard 350 million dollarlik 108 ta loyihaning qurilishi boshlanishi esa islohotlar izchil davom etayotganidan darak.

Viloyatning barcha shahar va tumanida amalga oshiriladigan loyihalarda energetika, qurilish, to‘qimachilik, mashinasozlik, ta’lim, turizm, logistika, farmatsevtika va sog‘liqni saqlash kabi sohalar qamrab olingan. Masalan, paxta-to‘qimachilik klasteri, elektr energiyasini saqlash va taqsimlash tizimi, elektr avtobuslar, quyosh panellari va mikrogidroenergetika uskunalari ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilmoqda.

Loyihalar Xitoy, Turkiya, Janubiy Koreya, AQSH, Rossiya, Belarus, Germaniya, Hindiston, Birlashgan Arab Amirliklari va Tojikiston kompaniyalari hamda mahalliy investorlar bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda. Ular amalga oshgach, 533 million dollarlik eksport imkoniyati shakllanadi. Muhimi, 45 mingdan ziyod yangi ish o‘rni yaratiladi.

Marosimda viloyatning barcha shahar va tumanlaridan mas’ullar, xorijlik hamkorlar va tashabbuskorlar videoaloqa orqali ishtirok etdi. Ular loyihalarning ahamiyati, amalga oshirish jarayoni va ishga tushirish muddatlari haqida axborot berdi.

Davomi 2-betda

INSONLARNING DARDU TASHVISHLARI BILAN YASHASH ODAMIYLIKNING ENG OLIY MEZONIDIR

Prezident virtual qabulxonasi faoliyatiga 10 yil to‘ldi

Xalq bilan muloqot qilish, murojaatlar bilan ishlash o‘zbek davlatchiligi tarixida shunchaki ma’muriy jarayon emas, balki davlat boshqaruvining adolat va ishonchga asoslanganini ko‘rsatuvchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Aholini tinglash, muammolarini hal qilish davlatning ham, har bir bo‘g‘indagi rahbarning ham el-yurt oldidagi doimiy vazifasi va burchidir.

Buyuk o‘zbek yo‘li

Shu ma’noda, Prezidentimiz tomonidan asos solingan Xalq qabulxonalari tizimi o‘zbek davlatchilik maktabiga xos “*Kuch — adolatda*” konsepsiyasining mantiqiy davomi sifatida ishlayotgan xalqchil va hayotiy institut. Bu esa davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan va bugun xalqimiz hayotida chuqur o‘rin olgan **“Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak”** tamoyilining ijtimoiy adolatni ta’minlash borasidagi o‘zbek davlatchilik maktabining yangi taraqqiyot bosqichi bo‘ldi, deyishga yetarlicha asos bor.

“Prezident portali”ning ibtidosi

“Sizda hal etilmagan masalalar, muammolar, ariza, shikoyat yoki takliflar bormi? U holda murojaatingizni to‘g‘ridan to‘g‘ri O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziriga yuborishingiz mumkin”.

Bu yangilik 2016-yil 24-sentabr kuni butun mamlakatimizni qamrab oldi. Oddiy muammolarini hal qila olmay davlat idoralari eshigida haftalab-oylab sarg‘aygan odamlar o‘shanda O‘zbekiston hukumati portalida ochilgan Bosh vazirning virtual qabulxonasini katta najot qo‘rg‘oni sifatida qabul qildi.

Buni mazkur virtual qabulxonaga dastlabki kuniyoq yurtimizning turli joylaridan mingga yaqin ariza, shikoyat va taklif tushganidan ham bilsa bo‘ladi.

O‘sha davrda “Virtual qabulxona saylovdan keyin ham ishlaydimi?” degan savol nafaqat islohotlarga shubha bilan qaragan xorijiy OAVlar maqolalari sarlavhasiga, balki oddiy insonlar xayolidagi doimiy fikrga aylangandi.

Virtual qabulxonaning 2016-yildagi ilk uch oylik faoliyati:

— mamlakatimizda murojaatlar bilan ishlash sohasi tub islohotga muhtojligini;

— murojaatlar bilan ishlash masalasiga ikkinchi darajali ish sifatida qaralganini;

— oddiy insonlar murojaatlariga hatto javob ololmagani, aksariyat holda rasmiyatchilik, byurokratizm va sansalorlik holatlariga duchor bo‘lganini;

— rahbarlarda xohish va iroda bo‘lsa, aksariyat muammolarni qisqa vaqtda samarali hal qilish mumkinligini keragicha isbotlab berdi.

Davomi 3-betda

BU YER HALI ZO‘R BO‘LADI

O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq shoiri Ibroyim Yusupov bir vaqtlar Qoraqalpog‘iston haqida:

Bir ozgina sabr qiling,
Bu yer hali zo‘r bo‘ladi!

deb kuylaganida elning kelajagi haqidagi bashorati rost bo‘lib chiqqanini yangi zamon isbotladi. Bundan 40 yillar ilgari shoir suvsizlik va loqaydlik natijasida aftodahol holatga kelib qolgan yurt haqida kuyinib aytgan va nurli kelajakdan umid qilgan edi.

Davomi 5-betda

Iftixor



Andijon shahridagi O‘rikzor mahallasi hududida tashkil etilgan 24/7 rejimida ishlaydigan gastronomik turizm ko‘chasida kechki sayr qilib yurgan yurtdoshlarimizning yuz-ko‘zida quvonch balqiydi. Ular fayz va baraka kirgan ko‘chalarini, shu yerda zavqlanib vaqt o‘tkazayotgan bolalariga qarab qalbi faxrga to‘ladi. Tinch va osuda Vatanda farovon, ertangi kunga ishonch bilan yashashning zavqi bebaho.

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 24-sentabr, 198-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

ANDIJONDA ISLOHOTLARNING USTUVOR YO‘NALISHI: INNOVATSION YECHIM, STRATEGIK TRANSFORMATSIYA VA IQTISODIY YUKSALISH

Boshlanishi 1-betda

Prezidentimiz ramziy tugmani bosib, 98 ta yangi loyihani ishga tushirdi, 108 ta obyekt qurilishiga start berdi. Shuningdek, investorlar va hudud faollari bilan muloqot bo‘lib o‘tdi. Davlatimiz rahbari mazkur tashabbuslarni amalga oshirishda ishtirok etayotgan xorijlik hamkorlar va mahalliy tadbirkorlarga minnatdorlik bildirdi.

Har bir loyiha, iqtisodiyot tarmoqlari malakali kadrlar bilan barqaror ishlaydi. Ayni paytda malakali kadrlarni tayyorlash tizimi ishsizlikni kamaytirib, iqtisodiy-ijtimoiy masalalarga yechim beradi. Zanjir halqasidek bir-biriga bog‘liq ushbu ikki jihat Andijon tumanidagi “Ipak yo‘li” sanoat zonasi hududida joylashgan texnikumda uyg‘unlashgan. Tashrifning navbatdagi manzili ushbu texnikum bo‘ldi.

“Andijon-Huanya” xalqaro texnikumi sanoat zonasidagi to‘qimachilik, mashinasozlik, elektrotexnika va boshqa yuqori texnologiyali korxonalar uchun talab yuqori bo‘lgan yo‘nalishlarda mutaxassislar tayyorlaydi. To‘liq xorijiy sarmoya hisobiga amalga oshgan loyiha sabab 150 ta yangi ish o‘rni yaratildi. Muassasa mutaxassislari o‘quvchilarga ko‘rgazmali qurollar asosida nazariy bilim beradi. Buning uchun o‘quv binosida barcha sharoit yaratilgan. Dual ta’lim tizimi sabab texnikum o‘quvchilari sanoat zonasidagi korxonalarda amaliy ko‘nikmaga ega bo‘ladi. Ayni paytda o‘qish jarayonida maosh olish imkoni ham beriladi.

Texnikum joriy yil iyun oyida ishga tushirildi. Dastlab 210 nafar o‘quvchi qabul qilindi. Rejaga ko‘ra, 2030-yilgacha yillik qabul 1 ming 800 nafarga yetkaziladi. Hozir 4 gektarda 5 ming nafar o‘quvchiga mo‘ljallangan zamonaviy o‘quv binosi qurilgan. Kelgusida yotoqxona, laboratoriya binosi, sport maydonchasi, oshxona va yashil hudud barpo qilinadi. Shu jarayonda ta’lim yo‘nalishlari soni ham 20 tagacha ko‘paytiriladi. Davlatimiz rahbari texnikumda yaratilgan sharoitlar bilan tanishib, yoshlar va investor bilan suhbatlashdi. Zamonaviy kasblarni o‘qitishni takomillashtirish, sohalar kesimida milliy kadrlar sinfini yaratish borasida ko‘rsatmalar berildi.

Prezidentimiz tashrifining navbatdagi manzilida “Andijon texnoparki” sanoat zonasidagi “aqlli” suv hisoblagichlarni ishlab chiqarish jarayoni bilan tanishdi.

Yuqorida qayd etganimizdek, Andijon mamlakatimizdagi hudud jihatdan kichik, ammo aholisi eng zich joylashgan viloyat hisoblanadi. Ayni jihat hududdagi yerdan ikki hissa unumli foydalanishni talab etadi. Keyingi yillarda bu borada juda ajoyib yechim topildi. Mazkur sanoat zonasi ham o‘sha yechimning samarasi o‘laroq adirlarni o‘zlashtirish orqali bunyod etildi.

Umuman, keyingi yillarda viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivoji uchun qator islohotlar amalga oshirildi. Bu borada Prezidentimizning tegishli qarori ham qabul qilindi. Natijada Andijonning investision jozibadorligi oshib bormoqda. Viloyatda mahalliy va xorijlik investorlar uchun qulay investitsiyaviy muhitni yanada yaxshilash, zarur shart-sharoitlar yaratish borasidagi islohotlar izchil davom etmoqda.

Loyiha qiymati 300 million dollar bo‘lgan “Andijon texnoparki” sanoat zonasi ana shu yo‘ldagi navbatdagi qadam bo‘ldi. Bu yerda adirliklarni o‘zlashtirish evaziga 100 gektar maydonda 51 ta sanoat korxonasi faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Sanoat zonasi to‘liq ishga tushgach, 3 mingta yangi ish o‘rni yaratiladi. Shu tariqa yiliga 200 million dollarlik 50 dan ortiq turdagi mahsulot ishlab chiqariladi. Byudjetga 160 milliard so‘mlik tushum kelishi kutilayotgan loyiha sabab viloyatning eksport salohiyati yana 50 million dollarga o‘sadi.

Sanoat zonasi hududida Xitoyning “Sanchuan” kompaniyasi tomonidan “aqlli” suv hisoblagichlar ishlab chiqarish zavodi barpo etilgan. Loyiha qiymati 25 million dollar xorijiy investitsiya hisobidan tashkil etilgan. Sohadagi raqamlashtirish islohotlarining muhim qismi hisoblangan loyiha O‘zbekistonda suv resurslarini nazorat qilishda yuqori samara berishi kutilmoqda. Ushbu suv hisoblagichlar 97 foiz aniqlikda isrofgarchilikning oldini olishga qaratilgan. “Huawei” bilan hamkorlikdagi 5G “aqlli” hisoblagichlari suv sarfi, sifati, qurilmalar holati va qarzdorlikni onlayn monitoring hamda nazorat qilish imkonini beradi.

Bu yerda yiliga 15 turdagi 1 million dona “aqlli” suv hisoblagich ishlab chiqariladi. Korxonada “Dual ta’lim” dasturi ham yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, mahalliylashtirish dasturi asosida ish olib borilmoqda. Unga ko‘ra, mahalliylashtirishni 2030-yilgacha 70 foizga yetkazish nazarda tutilgan. Buning uchun sanoat zonasiga ehtiyot qismlar ishlab chiqaruvchilar jalb etiladi.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar xalqaro standartlar va sertifikatlar talablariga javob beradi. Xususan, hisoblagichlar muzlab yorilmasligi uchun suv to‘planmaydigan konstruksiyada, sovuqqa chidamli korpus bilan ishlab chiqariladi.

Tadbirkorlik — iqtisodiyot tayanchi, yangi ish o‘rinlari kafolati, farovonlik asosi. Shu ma’noda, bugungi kunda mamlakatimizda mazkur tarmoqqa qaratilayotgan e’tibor har jihatdan diqqatga sazovor va dolzarb. Bunda maxsus va kichik zonalar tashkil etilib, bu yerda ishbilarmonlarga qulay shart-sharoitlar yaratib berilayotgani ayni muddao bo‘lmoqda.

Prezidentimiz tashrifining navbatdagi manzili — Oltinko‘l tumanidagi charm-poyabzal kichik sanoat zonasi buning yaqqol tasdig‘idir. Chunki ayni paytda bu yerda amalga oshirilayotgan loyihalar tufayli charm xomashyosi chuqur qayta ishlanib, mahalliy va tashqi bozorlarga sifatli poyabzallar yetkazib berilmoqda.

Yana bir e’tiborli jihati, mazkur sanoat zonasi vodiyda shu yo‘nalishda faoliyat yuritayotgan tadbirkor va kosiblarni, klasterlarni bir joyga jamlovchi yaxlit majmua hamdir.

Sanoat zonasi 10 gektardan ziyod maydonda tashkil etilgan. Shuning 5,5 gektarida zamonaviy ishlab chiqarish binolari, dual ta’lim markazi va savdo shoxobchalari faoliyat yuritmoqda. Ayni paytda bu yerda 2 ming 500 kishining bandligi ta’minlangan. Ular tomonidan tayyorlanayotgan mahsulotlar esa xorij bozorlari, xususan, Rossiya, Belarus, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg‘onistonda xaridorgir.

Davlatimiz rahbari majmuada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar namunalarini ko‘zdan kechirib, loyihalarning iqtisodiy samaradorligi va eksport salohiyatiga alohida e’tibor qaratdi.

Tadbirkorlar bilan muloqot qilib, mahsulot sifatini yanada yaxshilash, hozirgi zamon talablarini o‘zlashtirish va eksport geografiyasini kengaytirish bo‘yicha tavsiyalar berildi.

Shundan so‘ng mamlakatimiz yetakchisi Baliqchi tumanidagi “LB Sport” korxonasiga tashrif buyurdi.

Aytish kerakki, ushbu korxona ham tadbirkorlikka qaratilayotgan e’tibor mahsuli. Ya’ni loyihaga tadbirkor 25 milliard so‘m miqdorida mablag‘ni to‘liq o‘z hisobidan yo‘naltirgan. Va bu tashabbus amalda o‘zini har tomonlama oqlamoqda. “LB Sport” sport anjomlari ishlab chiqaruvchi yetakchi mahalliy korxonalardan biri ekanligi amalda o‘z isbotini topmoqda.

Korxona bilan ko‘plab tashkilot va klublar hamkorlik o‘rnatishga harakat qilmoqda. Buning boisi bor. Chunki bu yerda ishlab chiqarilayotgan 65 xil mahsulot va anjomlar sportning 18 turi uchun zarur. Korxonaning yillik quvvati 500 ming dona, umumiy qiymati 75 milliard so‘mni tashkil qiladi.

Asosiysi, mahsulotlar sifat borasida xorijnikidan qolishmaydi, raqobatbardosh. Narxi esa arzon. Bular, tabiiyki, buyurtmachi va xaridorlar uchun ma’qul omillar. Shu bois, korxona mahsulotlari allaqachon boshqa davlatlarga eksport qilinmoqda. Yillik eksport hajmi esa 3 million dollarni tashkil etadi.

Yana bir e’tiborga molik jihati, korxonaga tumandagi 800 ta kam daromadli oila kasanachilik asosida ishga jalb qilingan. Ularning 90 foizi ayollar va 65 foizi 30 yoshgacha bo‘lgan xotin-qizlardir. Albatta, ishlashning bu uslubi aholiga uyidan chiqmasdan daromad olishida ayni muddao bo‘lmoqda.

Ta’lim va ishlab chiqarish uyg‘unligi davr ehtiyoji. Rivojlanishning muhim va kerakli bosqichi. Buni to‘g‘ri anglagan korxona jamoasi tumandagi 1- va 2-son texnikumlarning 100 nafar o‘quvchisini dual ta’limga jalb qilgan.

Davlatimiz rahbari korxonaning ishlab chiqarish jarayoni va tayyor mahsulotlar namunalarini ko‘zdan kechirdi.

Korxona jamoasining kelgusi rejalari ko‘p. Bu haqda Prezidentimizga axborot berildi. Shunday istiqbolli loyihalardan biri — 2027-yilda sport velosipedlari ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi.

Prezidentimiz tumandagi “Chinobod real biznes” korxonasining baliq yetishtirish loyihasi bilan ham tanishdi.

Baliqchilik bugun nafaqat qishloq xo‘jaligining bir tarmog‘i yoki oziq-ovqat xavfsizligining muhim bo‘g‘ini, balki tadbirkorlikning ilm va innovatsiyaga, ilg‘or texnologiyaga tayangan muhim yo‘nalishi sifatida rivojlanib bormoqda.

Yer cheklangan, suv o‘lchovli. Bunday sharoitda qanday yo‘l tutiladi? Albatta, g‘oyaga, ilmga, innovatsiyaga murojaat qilinadi. Shu omil kichik imkoniyatni katta natijaga aylantirib beradi. “Chinobod real biznes” faoliyati ayni shunga asoslangan. Bo‘lmasa ikki gektar maydonda yiliga 200 tonna baliq go‘shti va 2,5 million dona baliq chavog‘i yetishtirilarmidi? Vaholanki, an’anaviy usulda bunga 100 gektarda erishish mumkin.

Korxonaning yillik ishlab chiqarish hajmi 50 milliard so‘mni tashkil etadi. Majmuada ikki million litr suvni tabiiy usulda tozalab beruvchi laboratoriya ham mavjud. Laboratoriya asosida suv sifatini yaxshilaydigan xlorella suv o‘ti yetishtiriladi. Ushbu ekologik toza tizim baliq yetishtirish samaradorligini 20 foizgacha oshiradi.

Quyosh panellari esa korxonaning elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyojini qoplaydi. Hovuzlardan chiqqan tabiiy moddalarga boy suv ekinlarni sug‘orishga ishlatiladi. Korxona vodiydagi baliqchilik xo‘jaliklarining forel chavog‘iga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi.

Umumiy qiymati 30 milliard so‘mni tashkil etuvchi loyiha tufayli 30 kishining bandligi ta’minlangan. Shuningdek, tumandagi Sarvul mahallasida 20 ta xonadon korxonaga kooperatsiya asosida forel yetishtirib bermoqda. Bu har ikki tomon uchun manfaatli kelishuvdir. Korxona qo‘shimcha mahsulotga, aholi qo‘shimcha daromadga ega bo‘ladi.

Bu yerdan Qirg‘iziston, Tojikiston va Afg‘onistonga yiliga 2 million dona forel chavog‘i eksport qilinadi. Yillik eksport hajmi 2 million dollar, budjetga tushum esa 5 milliard so‘mni tashkil etadi.

Majmuada ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Ya’ni Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti bilan hamkorlikda “Baliqchilik va parrandachilik amaliyot markazi” tashkil etilgan. Markaz talabalarning nazariy bilimlarini ishlab chiqarish jarayonida mustahkamlashda asqatmoqda.

Davlatimiz rahbari bunday yuqori samarali loyihalar aholi bandligini ta’minlash va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega ekanini ta’kidladi. Bu kabi ilg‘or tajribalarni keng ommalashtirish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Tabiiy, parhezbop tovuq go‘shti va yarim tayyor mahsulotlar bozorda ancha xaridorgir. Shu bois, bugun joylarda ushbu yo‘nalishda ko‘plab istiqbolli loyihalarga qo‘l urilib, yirik fabrikalar, ishlab chiqarish quvvatlari tashkil etilmoqda. Pirovardida bozorlarimiz hamyonbop va sifatli mahsulotlar bilan boyimoqda.

Prezidentimiz tashrif davomida mazkur yo‘nalishdagi yirik loyihalardan biri — “Sokin savdo servis” parrandachilik klasteri faoliyati bilan ham tanishdi.

Aytish joizki, klaster bu borada ancha ilg‘or va yaxshi tajribaga ega. Ya’ni parvarishlangan parranda shu yerning o‘zida go‘shti qayta ishlanib, qadoqlangan tarzda iste’molchilarga yetkazib beriladi. Korxona qayta ishlash tizimi MDH davlatlarida yagona, gigiyenik jihatdan toza, to‘liq avtomatlashtirilgan majmua hisoblanadi.

“Sokin savdo servis” parrandachilik klasterining Andijonda 5 ta, Namanganda 3 ta parrandachilik filiali mavjud. Toshkent viloyatidagi korxonasida esa zarur ozuqalar ishlab chiqariladi.

Loyiha qiymati 29 million dollarni tashkil etadi. Ishchilar soni esa 417 nafar, yillik eksport hajmi 5 million dollar. Mahsulotlar Afg‘oniston, Qirg‘iziston hamda Saudiya Arabistoniga sotilmoqda.

Ayni paytda klasterda 1,5 million dona broyler tovuqlari parvarish qilinmoqda. Yiliga esa 8,2 million dona broyler boqilib, 20,6 ming tonna parranda go‘shti yetishtirish imkoniyati mavjud.

Majmuada yiliga 55 ming tonna tovuq go‘shti va yarim tayyor mahsulotlari qayta ishlanadi. Innovatsion texnologiyalar mahsulotlarni to‘liq kimyoviy qo‘shimchalarsiz, xalqaro standartlarga muvofiq ishlab chiqarish imkonini beradi.

Bundan tashqari, klaster tomonidan joriy yil boshidan naslchilik yo‘nalishida 25 ming dona naslli ona tovuq parvarishi va tuxum yetishtirish yo‘lga qo‘yildi.

2027-yil yakuniga qadar parranda chiqindilarini qayta ishlashga mo‘ljallangan rendering liniyasini ishga tushirish hamda parranda yetishtirishda ko‘p qavatli katak tizimiga o‘tish rejalashtirilgan. Ikki loyiha uchun 10 million dollar mablag‘ yo‘naltiriladi.

Shuningdek, klasterda faoliyati to‘xtab qolgan yoki moliyaviy qiyinchilikka duch kelayotgan parrandachilik fermer xo‘jaliklarini yagona kooperatsiya tizimiga birlashtirish rejalashtirilgan. Natijada 350-400 ta ish o‘rni qayta tiklanib, qo‘shimcha 1,7 million dona parranda yetishtirish imkoniyati yaratiladi.

Prezidentimiz “Agroklaster Oltinko‘l” korxonasida Shinjon usulida paxta yetishtirish jarayonini ko‘zdan kechirdi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga, sohaga ilg‘or texnologiyalarni qo‘llashga, ilmiy ishlanma va yondashuvlarni ommalashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2025-yil 9 dekabrdagi “Paxtachilik va g‘allachilikda hosildorlikni oshirish to‘g‘risida”gi qarori bu boradagi ishlarni kengaytirishda ayni muddao bo‘lyapti.

Jumladan, sohaga Shinjon usulining tatbiq etilayotgani paxtachilikda hosildorlikni sezilarli darajada oshirmoqda. G‘o‘zani parvarishlash uchun ketadigan xarajat kamaymoqda.

“Agroklaster Oltinko‘l” korxonasining jami ekin yer maydoni 850 gektarni tashkil etadi. Shuning 23 gektarida Shinjon usulida paxta yetishtirish yo‘lga qo‘yilgan.

Xitoyning Shinjon usuli paxtachilikda suv va boshqa resurslarni tejash orqali hosildorlikni keskin oshirishga qaratilgan innovatsion texnologiya hisoblanadi. Ushbu usul bir qancha afzalliklarga ega. Masalan, chigitning plyonka ostiga qo‘sh qatorlab ekilishi tuproq namligi va haroratini mukammal saqlaydi. Tomchilatib sug‘orish va oziqlantirish orqali suv va o‘g‘it g‘o‘za ildiziga chuqur yetib boradi. Ortiqcha sarfning oldi olinadi. Ya’ni suv 40 foizgacha, o‘g‘it esa qariyb 30 foizga tejaladi.

An’anaviy usulda bir gektardan 30-35 sentner hosil olinsa, Shinjon texnologiyasi bilan bu ko‘rsatkich 60-70 sentnergacha yetadi.

Plyonka ostidagi mikroiqlim hisobiga chigit erta unib chiqadi. Bu mazkur usulda an’anaviy maydonlarga qaraganda 10-15 kun vaqtliroq paxta hosilini yig‘ib olish mumkin degani.

Paxtachilikda Shinjon usuli “Agroklaster Oltinko‘l” korxonasida yaxshi natija bermoqda. Shuningdek, agrotexnik tadbirlar, asosan, agrodronlar yordamida amalga oshirilayotgani tufayli maxsus texnikalardan foydalanishga ehtiyoj qoldirmayapti. Yoqilg‘i sarfi esa to‘liq tejalgan.

Davlatimiz rahbariga loyihaning natijalari, iqtisodiy samaradorligi va mazkur texnologiyani yanada kengaytirish rejalari haqida axborot berildi.

Turizm iqtisodiyot drayveri hisoblanadi. Keyingi yillarda ushbu sohaga katta e’tibor berildi. Natijada bu boradagi yangi manzillar soni keskin oshdi. Andijon viloyati Asaka tumanidagi “Yangi hayot” hududidagi adirliklar ham ana shunday manzillardan biriga aylanishi kutilmoqda.

Prezidentimiz ushbu hududda tashkil etilgan 192 gektarlik ekoturizm majmuasiga tashrif buyurdi. Davlatimiz rahbari topshirig‘i asosida Agrosanoatni rivojlantirish agentligi tashabbusi bilan amalga oshirilgan loyiha o‘zida tabiat va zamonaviy qulayliklarni uyg‘unlashtirgan. U baland tepalikda joylashgani bois, tumanning keng manzarasi kishi dilini ravshan qiladi.

Bu yerda sayyohlarga qulay muhit yaratish uchun kapsula shaklidagi 4 ta zamonaviy dam olish uyi qurilgan. Milliy uslubdagi 5 ta o‘tov o‘rnatilgan. O‘ttiz gektar maydonda manzarali daraxtlar va archalar ekilgan. Ular va boshqa yashillik olami to‘liq tomchilatib sug‘oriladi. Shu kabi tadbirlar evaziga tabiiy muhit saqlanib, resurslardan oqilona foydalanishga alohida e’tibor berilgan. 14 ming kub metr sig‘imga ega membranali suv havzasi ham fikrimiz dalili.

Muhimi, loyiha sabab mahalliy aholi uchun 275 ta doimiy va 200 ta mavsumiy ish o‘rni yaratildi. Shuningdek, bog‘da yetishtiriladigan uzumni eksport qilish reja qilingan. Muassasa to‘liq quvvat bilan ishga tushgach, yiliga 80 milliard so‘mlik xizmatlar ko‘rsatilishi kutilyapti. Umuman olganda, shu yil yakuniga qadar to‘liq ishga tushirilishi reja qilingan “Uzum bog‘i” majmuasi iqtisodiyot drayveri bo‘lgan sayyohlik salohiyatini oshirishga salmoqli hissa qo‘shadi.

Davlatimiz rahbari majmuada viloyat faollari va mehnat faxriylari bilan dasturxon atrofida samimiy suhbatlashdi. Muloqotda Andijonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli yangilanishlar, aholi farovonligini oshirish, mahallalarni obod qilish va yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratish haqida so‘z bordi. Tadbir davomida madaniy dastur va dronlar shousi namoyish etildi.

Andijon shahridagi O‘rikzor mahallasi hududida tashkil etilgan 24/7 rejimida ishlaydigan gastronomik turizm ko‘chasida kechki sayr qilib yurgan yurtdoshlarimizning yuz-ko‘zida quvonch balqiydi. Ular fayz va baraka kirgan ko‘chalariga, shu yerda zavqlanib vaqt o‘tkazayotgan bolalariga qarab qalbi faxrga to‘ladi. Tinch va osuda Vatanda farovon, ertangi kunga ishonch bilan yashashning zavqi bebaho.

Prezidentimiz mazkur ko‘chaga tashrif buyurib, shu yerda kechki sayrga chiqqan yurtdoshlarimiz bilan dildan suhbat qurdi.

Loyiha doirasida ko‘cha obod qilinib, 100 ta yangi ish o‘rni yaratildi. Ko‘chadagi 35 ta savdo obyektida 30 ta tadbirkorlik subyekti o‘rin olgan bo‘lib, ular 24/7 rejimda ishlaydi. Umumiy uzunligi 1,2 kilometr bo‘lgan ko‘chada keng hamda xavfsiz piyoda va velosipedlar yo‘laklari barpo etildi. Yashil landshaft dizayni, favvoralar, turfa chiroqlar hududga yanada ko‘rk bag‘ishlagan. Ko‘cha bo‘ylab zamonaviy selfi-zonalar, ochiq havodagi sport va bolalar ekomaydonchalari, shuningdek, oilaviy dam olish maskanlari tashkil etilgan. Loyiha doirasida hududga kuniga tashrif buyuradigan 10 mingdan ziyod aholi va sayyohga uzluksiz savdo hamda sifatli xizmat ko‘rsatish yo‘lga qo‘yiladi.

Andijon shahridagi Boburshoh ko‘chasining ikki qismini bog‘lovchi yangi yo‘lo‘tkazgich transport qatnovini yaxshilab, viloyat ahli va mehmonlariga katta qulaylik yaratadi. Jumladan, u shaharning ikki qismini to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘laydi. Ortiqcha aylanma yo‘lning bartaraf etilishi transport harakatini yengillashtiradi. Masalan, Andijon shahri va Oltinko‘l tumanida yashovchi 140 ming nafar aholi endilikda 5,3 kilometr ortiqcha yo‘l bosmaydi.

Shuningdek, maxsus xizmatlarning qatnov masofasi 15 kilometrdan 9,3 kilometrga qisqardi. Ortiqcha masofa hamda temir yo‘l kesishmasidagi kutishlarning bartaraf etilishi natijasida manzilga yetib borish vaqti 17 daqiqagacha kamayadi.

Tashrif davomida Prezidentimiz ushbu yo‘lo‘tkazgich bilan ham tanishdi. Umumiy qiymati 271 milliard so‘m bo‘lgan mazkur loyiha davlatimiz rahbarining Andijon viloyatiga avvalgi tashrifi chog‘ida bergan topshirig‘i asosida amalga oshirildi. Yo‘lo‘tkazgichning umumiy uzunligi 796 metr, kengligi 25,9 metr-ni tashkil etadi. Uning 596 metri estakada, 200 metri esa tirgak devorli yo‘l qismidan iborat.

So‘zimiz avvalida aytilganidek, davlatimiz rahbarining Andijon viloyatiga tashrifi tig‘iz ish rejimi asosida sermahsul va samarador bo‘ldi. Yangi O‘zbekiston siyosatida samaradorlik deganda real natijalar, xalqni rozi qilishga qaratilgan aniq rejalar nazarda tutiladi. Mamlakat rahbarining tashrifi davomidagi har bir manzil, boshlangan loyihalar, ish boshlagan iqtisodiy quvvatlar xalqimiz quvonchiga sabab bo‘ldi. Bu bejiz emas, chunki start berilgan loyihalar ertaga aniq natija olib kirishini yurtdoshlarimiz hayotlari misolida yaxshi anglaydi. Andijon ko‘chalarini kezib, tasodifan duch kelgan istalgan kishi bilan suhbatlashsangiz bunga amin bo‘lasiz. Ana shu omilning o‘ziyoq mamlakatimizdagi islohotlar tom ma’noda inson qadrini yuksaltirishga qaratilganini anglatadi.

Davlatimiz rahbarining Andijon viloyatiga tashrifi davom etmoqda.

Boboravshan G‘OZIDDINOV,
Dilshod ULUG‘MURODOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbirlari

O‘ZBEKISTON QAHRAMONI PARDA ZIYATOV



Butun hayoti va faoliyatini qishloq xo‘jaligi sohasi rivojiga bag‘ishlagan taniqli fermer, O‘zbekiston Qahramoni Parda Ziyatov shu yil 23-sentabr kuni 79 yoshida vafot etdi.

P.Ziyatov 1947-yili Jizzax viloyatining Sharof Rashidov (sobiq Jizzax) tumanida tug‘ildi. O‘rta maktabni tugatib, Samarqand qishloq xo‘jaligi texnikumida agronom mutaxassisligi bo‘yicha tahsil oldi.

Harbiy xizmatni o‘tab kelgach, mehnat faoliyatini tumandagi Hamroqul Nosirov nomidagi jamoa xo‘jaligida tabelchi sifatida boshladi. Keyinchalik mazkur xo‘jalikda brigada boshlig‘i, shirkat xo‘jaligi bosh pudratchisi kabi vazifalarda samarali faoliyat yuritdi.

Dehqonchilik ilmini chuqur biladigan P.Ziyatov 2003-2018-yillarda Sharof Rashidov tumanidagi “Quyoshsevar Parda” fermer xo‘jaligiga rahbarlik qilib, mamlakatimizda agrar sohada keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirish, fermerlik harakati rivojini yangi bosqichga olib chiqishga katta hissa qo‘shdi. U shartnoma rejalarini muntazam ortig‘i bilan bajarib kelgan, paxtachilik va g‘allachilikda o‘z tajriba maktabini yaratgan zahmatkash fermer, mohir tashkilotchi, kamtarin va samimiy inson sifatida nafaqat Jizzax viloyatida, balki butun respublikamizda munosib obro‘-e’tibor topdi.

Mashhur fermer ko‘plab yoshlarga ustozlik qilib, qishloq xo‘jaligi sohasini malakali kadrlar bilan ta’minlash borasida ham alohida jonbozlik ko‘rsatdi.

P.Ziyatov 1990-1995-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputati, 2005-2015-yillarda Oliy Majlis Senati a’zosi hamda ko‘p yillar davomida Xalq deputatlari viloyat va tuman kengashlari deputati sifatida faoliyat yuritib, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholining turmush sharoitini yaxshilash, qurilish-bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlarida jonkuyarlik va tashabbuskorlik fazilatlarini namoyon etdi.

P.Ziyatov so‘nggi yillarda, nafaqada bo‘lishiga qaramasdan, qishloq va mahallalarni obod qilish, keksa avlod vakillarini qo‘llab-quvvatlash, yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash jarayonlarida faol ishtirok etdi.

Parda Ziyatovning ko‘p yillik samarali mehnati davlatimiz tomonidan munosib taqdirlandi. U “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni bilan mukofotlangan edi.

Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi sohasining yorqin namoyandasi, mehnat faxriysi, samimiy va kamtarin inson Parda Ziyatovning xotirasi qalblarimizda hamisha saqlanib qoladi.

SH. MIRZIYOYEV, T. NORBOYEVA, N. ISMOILOV, A. ARIPOV, S. TURDIYEV, I. ABDURAHMONOV, U. MUSTAFOYEV



ELI SHODNING YURTI OBOD

Yigirma olti yildan buyon mahalla raisi bo‘lib ishlayman. O‘tgan davrda odamlarning yonida turib, dardini ham, quvonchini ham ko‘rdim. Keyingi yillarda mahallaga e’tibor kuchayganini esa faoliyatimizda, odamlarning hayotida har kuni his qilib turibmiz. Bugun mahalla faqat muammo aytiladigan joy bo‘lib qolmay, muhim masalalar hal bo‘ladigan, oila va yoshlar bilan ishlash bo‘yicha eng yaqin manzilga aylanmoqda.

Davlatimiz rahbarining Andijon viloyatiga tashrifi davomida qiymati 9 milliard dollardan ziyod bo‘lgan yangi obyektlar ishga tushirilgani hamda yirik loyihalar qurilishiga start berilgani haqidagi xabarni eshitib, juda xursand bo‘ldim. Chunki mahallada yoshlar bilan ishlaydigan odam sifatida bu raqamlar ortida qanday imkoniyatlar turganini yaxshi bilamiz. Yangi korxona yangi ish o‘rni, yangi ish o‘rni esa oilalarning daromadi va xotirjamligi degani.

Ayniqsa, yoshlarimiz uchun yaratilayotgan imkoniyatlar barchamizni quvontiradi. Farzandlarimiz ish izlab, uzoq mamlakatlarga ketmay, o‘z yurtida mehnat qilib, kechqurun ota-onasi, oilasi bag‘riga qaytib kelishi — katta baxt. Ota-ona uchun farzandining musofir bo‘lib emas, o‘z Vatanida kasb-hunar o‘rganib, ro‘zg‘or tebratayotganini ko‘rish nihoyatda quvonchli voqea.

“Barkamol” mahalla fuqarolar yig‘inida bugun 5000 dan ortiq odam yashaydi. Aholining katta qismi yoshlardan iborat. Ularning ishli bo‘lishi, kasb o‘rganishi, o‘zini o‘zi band qilishi, tadbirkorlikka qadam qo‘yishi — biz uchun doimiy e’tibordagi masala.

Mahallamizda keyingi vaqtlarda qilinayotgan ishlar samarasi hudud aholisi hayotida yaqqol sezilyapti. Yangi xizmat ko‘rsatish obyektlari qurilyapti, ko‘chalar asfaltlanyapti, bolalarimiz uchun futbol maydonchalari barpo etilyapti.

Xalqimizda “El shod bo‘lsa, yurt obod” degan gap bor. Mahalladagi obodlik — yurt obodligining bir qismi. Biz bugun mahallamizda ko‘rayotgan o‘zgarishlarni ham ana shu e’tiborning amaliy natijasi sifatida qabul qilyapmiz.

Mahallaga e’tibor kuchaygani sari biz, mahalla raislarining mas’uliyati ham ortmoqda. Odamlarning muammosini eshitishning o‘zi yetarli emas, masalani yechish kerak. Ish qidirayotgan yoshni munosib ishga yo‘naltirish, tadbirkorlik qilish istagidagi fuqaroga imkoniyat yaratish, ehtiyojmand oilani qo‘llab-quvvatlash — mahalladagi kundalik ishimiz.

Bugun Andijonda qilinayotgan ishlarni ko‘rib, eng avvalo, ularning ertangi samarasi haqida o‘ylaymiz. Uzoq yillik faoliyatim davomida bir haqiqatga ishonch hosil qildim: mahallada qilingan ishning bahosini odamlarning o‘zi beradi. Ko‘cha obod bo‘lsa, odamlar, farzandi ishli bo‘lsa, ota-ona, bolasi uchun yaxshi sharoit yaratilsa, oila rozi bo‘ladi.

Yurtimizdagi katta bunyodkorlik ishlari mahallamizgacha yetib kelayotganini ko‘rib, biz ham ishimizga mas’uliyatni kuchaytiryapmiz. Zero, katta o‘zgarishlar ham mahallada — odamlarning kundalik hayotida natijasini ko‘rsatadi.

Tabassumxon ISROILOVA,
Andijon shahridagi
“Barkamol” MFY raisi

YANGI O‘ZBEKISTON

Xalq qabulxonalari instituti Prezidentimiz siyosiy irodasi bilan davlat idoralarini xalqqa yaqinlashtirish borasida o‘z vaqtida amalga oshirilgan muhim islohot va oqilona tashabbuslardan biri ekanini o‘tgan 10 yil davomida hayotning o‘zi isbotlab berdi.

NIGOH 3

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

2026-yil 24-sentabr, 198-son

INSONLARNING DARDU TASHVISHLARI BILAN YASHASH ODAMIYLIKNING ENG OLIY MEZONIDIR

Prezident virtual qabulxonasi faoliyatiga 10 yil to‘ldi

Farrux OMONOV,
Prezident xalq qabulxonasi boshlig‘i

Boshlanishi 1-betda

Shu bois, Prezidentimiz Konstitusiyamiz qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda 2017-yilni “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” deb e’lon qilarkan, quyidagi tashabbuslarni ilgari surdi:

— davlat organlarining fuqarolar bilan o‘zaro munosabatlari yuzasidan yondashuvni tubdan qayta ko‘rib chiqish;

— aholi bilan doimiy muloqot qilish, ularni qiynayotgan muammolarni hal etishning yangi mexanizmlari va samarali usullarini joriy etish;

— aholi eng ko‘p murojaat qiladigan davlat idoralari faoliyatida odamlar bilan ishlash bo‘yicha sifat jihatidan mutlaqo yangi tizimga o‘tish;

— barcha darajadagi hokimlar, prokuratura va ichki ishlar organlari rahbarlarining aholi oldida hisobot berish tizimini joriy etish;

— har bir tuman va shaharda Xalq qabulxonalarini tashkil etish va ularning to‘laqonli faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash;

— Xalq qabulxonalarining huquqiy maqomini, ularning vakolat va majburiyatlarini aniq belgilab qo‘yish.

“Bizning asosiy maqsadimiz Xalq qabulxonalariga qilingan hech bir murojaat e’tiborsiz qolmaydigan tizim yaratishdan iborat. Muxtasar aytganda, odamlarning dardini eshitish, ular bilan ochiq muloqotda bo‘lish, og‘irini yengil qilish aholining davlat va jamiyatga ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi” deb ta’kidlagandi o‘shanda davlatimiz rahbari.

Oradan bir hafta o‘tib — 2016-yil 14-dekabrda Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqida buyuk mutafakkir Alisher Navoiy merosidan kelib chiqib, “**Insonlarning dardu tashvishlarini o‘ylab yashash — odamiylikning eng oliy mezonidir**” g‘oyasini ilgari surdiki, bu fikr-g‘oya va da’vat bugunga qadar Prezident xalq qabulxonalarining asosiy shiori, bosh vazifasi, faoliyat mezoni bo‘lib kelmoqda.

10-00 qisqa raqami va pm.gov.uz platformasi esa “Prezident portali” degan xalqona nom olib, bugun xalqimiz hayotining muhim bir qismiga aylandi.

“Adolat ovozi jaranglab turishi kerak”

Davlatimiz rahbarining 2016-yil 28-dekabrda qabul qilingan “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq, Bosh vazirning virtual qabulxonasi Prezident virtual qabulxonasi, Prezident devoni ishlar boshqarmasining Fuqarolar qabulxonasi — O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi sifatida qayta tashkil etildi, Qoraqalpog‘iston, viloyatlar, Toshkent shahri va barcha tuman-shaharda bir xil maqomdagi Prezident xalq qabulxonalari faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Prezidentimiz 2017-yili Toshkent shahri, Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Xorazm viloyatlari va Qoraqalpog‘istondagi Xalq qabulxonalari faoliyati bilan bevosita tanishib, faoliyatni samarali tashkil etish bo‘yicha topshiriq va ko‘rsatmalar berdi.

Har bir murojaat — ijtimoiy signal, indikator

Xalq qabulxonalari instituti Prezidentimiz **siyosiy irodasi** bilan **davlat idoralarini xalqqa yaqinlashtirish** borasida o‘z vaqtida amalga oshirilgan **muhim islohot** va **oqilona tashabbus**lardan biri ekanini o‘tgan 10 yil davomida hayotning o‘zi isbotlab berdi.

Aholi muammolari bilan ishlashning mazkur yangi tizimi yo‘lga qo‘yilishi natijasida har bir fuqaroning **Prezidentga bevosita murojaat qilishga oid konstitutsiyaviy huquqi** ro‘yobga chiqarilishi uchun sharoit, murojaatlarni qonunchilikda belgilangan uch shaklda — og‘zaki (*0-800-210-00-00 yoki 10-00 qisqa raqamlari*), yozma (*Xalq qabulxonalari*) va elektron (*pm.gov.uz*) tarzda yuborish uchun imkoniyat yaratildi. Davlat idoralari bilan aholi o‘rtasida **muloqot tizimi** mustahkamlandi. Barcha darajadagi rahbarlar odamlarni tinglay boshladi. Eng muhimi, xalq har qanday muammosi bilan hadiksiz-qo‘rquvsiz, emin-erkin murojaat qilishi mumkin bo‘lgan **yagona manzil** paydo bo‘ldi.

2017-yil 11-sentabrda “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi qonun yangi tahrirda qabul qilinishi bilan ilk bor **“videokonferensaloqa”, “ommaviy qabul”, “Prezident xalq qabulxonasi”, “Virtual qabulxona”** kabi yangi huquqiy istilohlar yuridik amaliyotga kiritildi.

Muammosi yechilgan inson ko‘ksini to‘ldirib nafas oladi, uning hayotida halovat, xotirjamlik paydo bo‘ladi. O‘zini yelkasidan tog‘ ag‘darilgandek his qiladi. Shu ma’noda, o‘tgan 10 yil davomida davlatimiz rahbari



> **“Xalq qabulxonalarini tashkil etishdan maqsad jamiyatimizdagi adolat poydevorini yanada mustahkamlashdir. Aholini qiynayotgan masalalarni tahlil qilish orqali qonun hujjatlarini takomillashtirib boramiz”.**
>
> **Shavkat MIRZIYOYEV**
> *(Surxondaryo viloyatidagi Xalq qabulxonasi. 2017-yil, 11-fevral)*

nomiga kelib tushgan **11,6 million**dan ziyod murojaat ko‘rib chiqilib, uning **7,9 million**dan ortig‘i (*68,2 foizi*) qanoatlantirilgani zamirida million-million insonlar hayotidagi ijobiy o‘zgarishlar mujassam.

Xalq bilan muloqotning yangi tizimi oddiy odamlar va rahbarlar o‘rtasidagi mavjud baland devorlarni qulatdi. Amaldorlarni hamma tomoni qalin panjaralar bilan o‘ralgan binolarning salqin kabinetlaridan xalq orasiga olib chiqdi. Sayyor va ommaviy qabullar qizg‘in, jonli muloqot maydoniga aylandi, mansabdorlar murojaatchi kelishini kutib o‘tirmay, fuqarolarning oldiga borib, ularni o‘ylantirayotgan masalalar haqida yuzma-yuz gaplashib olishi oddiy hol bo‘lib qoldi.

Eng muhimi, murojaatlarda aks etgan eng dolzarb muammolar yechimiga oid takliflar asosida tegishli normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishi uzoq yillar davomida to‘planib qolgan o‘tkir ijtimoiy-huquqiy masalalar hal etilishiga xizmat qildi.

Aytaylik, valyuta ayirboshlash (konversiya, konvertatsiya) masalasida 2016-yilning IV choragida **4826 ta**, 2017-yilda **22 098 ta** murojaat kelib tushgan edi. 2017-yil sentyabr-dekabr oylarida Prezidentimizning siyosiy irodasi bilan mamlakatimizda valyuta islohotlari amalga oshirilgach, bu tizimli muammo to‘liq hal etildi.

Yoki yaqin tariximizda O‘zbekistonda fuqarolik olish eng qiyin masalalardan biri bo‘lgan. 1991-2007-yillarda qariyb 500 kishi O‘zbekiston fuqaroligini olgan bo‘lsa, 2007-2016-yillarda hech kimga fuqarolik berilmagan. Bu degani minglab insonlar amalda mamlakatimizda yashab, uning taraqqiyotiga hissa qo‘shib kelayotgan bo‘lsa-da, yuridik jihatdan O‘zbekiston fuqarosi maqomidan mahrum bo‘lib kelgandi.

Virtual qabulxonaga **2016-yil IV choragining** o‘zida ushbu masalada **4 mingdan ziyod** murojaat kelib tushgach, u chuqur tahlil qilindi. Prezidentimizning siyosiy irodasi bilan o‘tgan davrda fuqarolik to‘g‘risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi hamda tartib-taomillar soddalashtirilishi natijasida **2016-yil dekabr**dan buyon fuqaroligi bo‘lmagan **25 339** shaxs O‘zbekiston fuqaroligiga qabul qilindi, **2020-yildan 2026-yil**ning o‘tgan davrigacha yana **66 ming**dan ziyod shaxsning O‘zbekiston fuqaroligi tan olindi.

Yoki **1991-2016-yillar**da mamlakatimizda **7 kishiga** sudlar tomonidan oqlov hukmi chiqarilgan bo‘lsa, Prezident xalq qabulxonalari va Oliy sudga murojaatlari asosida 2017-2026-yillarda 7454 ta shaxs sudlar tomonidan oqlanib, reabilitatsiya qilindi.

Bankomatdan naqd pul olish, oylik ish haqlari va pensiyalarni naqd pulda olish, Toshkent shahri va Toshkent viloyatida doimiy ro‘yxatdan o‘tish, pasport rasmiylashtirish, notarial tizimdan norozilik, xorijiy diplom nostrifikatsiyasi, afv etish va **amnistiya, haj** va **umra ziyorati, internet, mobil aloqa sifati** kabi o‘nlab tizimli muammolarning hal etilishida ham aynan murojaatlar tahlili asosida qilingan xulosalarning o‘rni katta bo‘ldi.

Davlatimiz rahbarining 2018-yil 20-apreldagi “Fuqarolarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar hamda o‘zboshimchalik bilan qurilgan turar joylarga nisbatan mulk huquqini e’tirof etish bo‘yicha bir martalik umumdavlat aksiyasini o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilinishiga ham Prezident virtual qabulxonasiga kelib tushgan **5 mingdan ortiq, sayyor qabullarda qilingan 3 mingdan ziyod murojaat tahlili** asos bo‘lgan edi. Buning natijasida uy qurib, uzoq yillar davomida o‘z uyiga egalik huquqini ololmagan **621 mingdan ortiq fuqaroning muammosiga** davlat rahbarining 2018-2019-yillarda e’lon qilingan **bir martalik umumdavlat aksiyasi** doirasida yechim topildi.

Prezidentimiz 2022-yil 18-noyabrdagi videoselektor yig‘ilishida mamlakatimizda 2,6 million aholi xonadonining kadastr hujjatlari yo‘qligi, ushbu aholi tomorqa uchun kredit, subsidiya hamda uy-joyini kengaytirishga ipotekadan foydalana olmayotgani haqida Xalq qabulxonalariga murojaatlar tushayotganini aytib, mutasaddilarga respublikaning barcha hududlarida **kadastri yo‘q xonadonlar masalasini uzil-kesil hal qilish** uchun alohida qonun loyihasini ishlab chiqish bo‘yicha topshiriq berdi va “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinib, 2024-yil 8-noyabrdan kuchga kirdi.

Bu bilan kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish va ma’lumotlar bazasi faoliyati bilan bog‘liq masalalarni hal etishning huquqiy asosi yaratildi. Ayni shu yo‘nalishda 2020-2026-yillarda 81 153 ta, jumladan, 2020-yili 5883 ta, 2021-yili 9158 ta, 2022-yili 12 126 ta, 2023-yili 13 327 ta, 2024-yili 15 665 ta, 2025-yili 13 699 ta, 2026-yilning o‘tgan davrida 11 617 ta murojaat kelib tushgan. Yillar dinamikasidagi bu ko‘rsatkichlar ham mazkur masala nima uchun aynan 2022-yili ko‘tarilgani hamda davlat rahbarining siyosiy irodasi bilan qabul qilingan bu qonun xalqimiz uchun qanday dolzarb, tizimli muammo yechimiga xizmat qilishini oydinlashtiradi. Xatlov jarayonida aholi va soha xodimlari o‘rtasida turli bahslar bo‘lishi bois, bu yo‘nalishda murojaatlar soni oshishi tabiiy.

Murojaatlar tahlili ko‘plab hayotiy loyihalarga, loyihalar dasturlarga hamda amaliy ishlarga aylanganiga ko‘p bor guvoh bo‘ldik. “Obod qishloq”, “Obod mahalla” dasturlari, “Obod markaz” loyihasi bilan minglab qishloq-mahallalarga yangi O‘zbekiston qiyofasi kirib bordi. Nogironligi bo‘lgan, og‘ir ijtimoiy ahvolda qolgan 11 mingdan ortiq oila uy-joylar bilan ta’minlandi.

Bularning barchasi davlat har bir murojaatni ijtimoiy signal, xalq hayotini ko‘rsatuvchi indikator sifatida qabul qilayotganiga yorqin hayotiy misol bo‘la oladi.

Murojaatlar ko‘rib chiqilishi ustidan nazorat kuchaytirildi

Xalq bilan muloqot tizimini takomillashtirish — bugunning muhim va o‘tkir talabi.

Joriy yil 13-mart kuni Prezidentimiz raisligida aholi murojaatlari bilan ishlash tizimini takomillashtirish, Xalq qabulxonalari faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish va jamoatchilik fikrini chuqur tahlil qilish masalalari yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ilgari surilgan yangi tashabbuslar, berilgan topshiriqlar bilan Xalq qabulxonalari faoliyatining yangi bosqichi boshlandi.

> **“Xalq qabulxonalari xalq bilan muloqot uchun erkinlik va qulaylik yaratdi, endi asosiy e’tiborni odamlarni rozi qilishga qaratish zarur. Bu maskanda adolat ovozi jaranglab turishi kerak”.**
>
> **Shavkat MIRZIYOYEV**
> *(Samarqand viloyatidagi Xalq qabulxonasi. 2017-yil, 15-aprel)*

Davlatimiz rahbarining shu yil 1-apreldagi “Aholi bilan muloqot tizimini samarali tashkil qilish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti xalq qabulxonasi tashkil etilib, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri, tuman (shahar) hokimlarining tegishli hududdagi Xalq qabulxonasiga jamoatchilik asosida rahbarlik qilishi belgilandi.

Yangi tizim asosida 2026-yil 1-maydan Prezident virtual qabulxonasi axborot tizimiga kelib tushgan murojaatlar bo‘yicha nazorat vaqti rejimi o‘rnatildi. Bunga ko‘ra, belgilangan muddatdan o‘tgan murojaatlar ijro uchun avtomatik ravishda yuqori turuvchi davlat organiga o‘tkazilmoqda.

Murojaatlarni qabul qilishda ularni “shoshilinch”, “odatiy”, “maslahat talab qiluvchi” toifalarga ajratish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Muddati kechikkan va takroriy murojaatlarni avtomatik aniqlash uchun **nazorat indikatorlari** va “**qizil signal**” tizimi ishga tushirildi.

Davlatimiz rahbari topshirig‘i asosida:

— Prezident xalq qabulxonasida alohida nazorat guruhi faoliyati yo‘lga qo‘yilib, davlat organlari va tashkilotlari tomonidan murojaatlar ko‘rib chiqilishi ustidan qat’iy raqamli nazorat o‘rnatildi.

— Prezident xalq qabulxonasida Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan hamkorlikda fuqarolarga o‘z murojaatini nazorat qilish imkoniyatini beruvchi SMS xabarnoma yuborish xizmati ishga tushirildi.

Mamlakatimizdagi 8992 ta mahallada Prezident virtual qabulxonasi tizimida ishlash uchun alohida kabinetlar ochilib, “mahalla yettiligi” a’zolari murojaatlar bilan ishlash jarayoniga jalb qilinishi ta’minlandi. Xususan, joriy yilning 1-mayidan boshlab **4289 ta jamoaviy murojaat** aholi vakillari va “mahalla yettiligi” ishtirokida o‘rganildi.

Misol uchun, **urgut**lik F.Aliyev murojaati asosida Jo‘raptepa mahallasida 3 kilometr, **qiziltepa**lik J.Navro‘zov arizasiga ko‘ra, Hafqoriyon mahallasining 2 kilometr, **boysun**lik S.Safarova murojaati bo‘yicha “Temirdarvoza” MFYdagi 1,4 kilometr, **peshku**lik M.Sunnatov murojaati asosida Guliston mahallasidagi 1 kilometr ichki yo‘l asfaltlandi. **Asaka**lik M.Madaminova murojaatiga ko‘ra, tegishli suv yuborish inshootidagi elektr qurilmalar ta’mirlanib, chekka adirli hududda yashovchi 500 dan ortiq aholi xonadoniga sifatli ichimlik suv yetkazib berish yo‘lga qo‘yildi. **Qorao‘zak**lik P.Seytmurotov murojaati asosida Berdaq mahallasidagi kanalning 1,5 kilometr qismi qazilib, hududdagi 5 ta fermer xo‘jaligi uchun yerni sug‘orish imkoniyati yaratildi. **Quva**lik F.Tillaboyeva murojaati bo‘yicha “Toshkent” MFYda 1 ta yangi transformator o‘rnatilib, 1,5 kilometr tarmoq tortildi.

Aslida, murojaatga yo‘llangan javob fuqaro ishtirokida o‘rganilganda, arizashikoyatga samarali yechim topish mumkin. Shuning uchun ham Xalq qabulxonalari tomonidan joriy yilning o‘tgan davrida **6296 ta** murojaat joyiga chiqib o‘rganildi, davlat idoralarida murojaatlar bilan ishlash holati yuzasidan **896 ta** o‘rganish, **3919 ta** tahlil o‘tkazildi.

Davlat organlari va tashkilotlariga murojaatlar bilan ishlashda yo‘l qo‘ygan kamchiliklari yuzasidan ta’sir choralari ko‘rish bo‘yicha joriy yilning o‘zida jami **5486 ta** hujjat, jumladan, **1386 ta taqdimnoma, 642 ta talabnoma, 2963 ta ko‘rsatma,** Xalq deputatlari mahalliy kengashlari majlislariga **495 ta axborot** kiritildi.

Bularning natijasida aholi murojaatlari bilan talab darajasida ishlamagani uchun davlat idoralari mas’ul xodimlarining **151 nafar**i egallab turgan **lavozimidan ozod etildi**, **150 nafari ma’muriy**, **89 nafar**i oylik ish haqidan **jarima**ga tortildi, **833 nafar**iga **hayfsan** e’lon qilindi, **8 nafar**ining **lavozimi pasaytiril**di, **3 nafar**ining **ma’naviy ziyon uchun kompensatsiya to‘lashi**, **1 nafar**i tomonidan yetkazilgan moddiy zarar qoplanishi ta’minlandi. Bundan tashqari, yana **1335** mas’ul xodim rasman ogohlantirildi.

Xalq qabulxonalari diagnostika markazlariga aylanmoqda

Davlatimiz rahbarining shu yil 13-martdagi videoselektor yig‘ilishidagi topshirig‘i asosida Xalq qabulxonalari faqatgina ariza qabul qiluvchi organ emas, balki Qarshi shahri namunasi asosida hududdagi muammolarni diagnostika qiladigan markazga aylantirilmoqda. Bu murojaatlar bilan ishlash jarayonida “**oqibatlarga qarshi kurashish**”dan “**sabablar bilan ishlash**” bosqichiga o‘tilayotganining hayotiy isbotidir.

Mazkur topshiriq ijrosi bo‘yicha joriy yilning 16-martidan Prezident xalq qabulxonalariga kelib tushgan **104 680 ta** masala hal etildi. Jumladan, **aliment** undirish bilan bog‘liq **11 993 ta**, **gaz ballon**ni to‘ldirishga doir **10 785 ta**, **nafaqa** tayinlash, **moddiy yordam** ajratish va **pensiya**ga oid **9363 ta**, davlat idoralari xodimlari **xatti-harakatlaridan** norozilikka doir **4123 ta**, **mehnatga haq to‘lash** va hisoblash bilan bog‘liq **2908 ta**, **boshqaruv servis kompaniyalari** (*shirkatlar*) faoliyati bilan bog‘liq **1811 ta**, huquqbuzarliklar, **surishtiruv** va **tergov**ga oid **1624 ta**, **davolanish** uchun moddiy yordamga doir **1572 ta**, ijro hujjatlari bo‘yicha **qarz undirish**ga oid **1434 ta** masala hal etilishi ta’minlandi.

Hududlardagi Xalq qabulxonalarida Qarshi shahri namunasi asosida aholi murojaatlari bilan ishlash bo‘yicha **doimiy ishchi guruhlar** faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Har bir hududdagi jami murojaatning kamida 90-95 foizi tegishli bo‘lgan asosiy idoralar (*korxona, tashkilot, muassasalar*) dan boshliq o‘rinbosari darajasida sohaviy koordinatorlar tayinlanib, doimiy ishchi guruhlarga biriktirildi.

Ular Xalq qabulxonasiga faqat zaruratga ko‘ra chaqirilib, o‘z sohasi bo‘yicha fuqarolar qabulini o‘tkazish, murojaatlarni ko‘rib chiqib, hal qilish hamda tizimli muammolar diagnostikasini belgilash bo‘yicha ishlamoqda. Birgina iyul-avgust oylarida Prezident xalq qabulxonasiga kelib tushgan 158 850 ta murojaat bo‘yicha qilingan tahlil asosida **494 ta tizimli muammo** aniqlanib, yechimi tuman-shahar, viloyat yo respublika darajasiga tegishli bo‘lgan **386 ta taklif** ishlab chiqildi.

Qoraqalpog‘iston Jo‘qorg‘i Kengesi, Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlar hokimlari hamda o‘rinbosarlarining Xalq qabulxonalarida shaxsiy qabullar o‘tkazish sifati va samaradorligi oshirildi.

Prezidentimiz topshirig‘iga ko‘ra, davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy hokimliklar tomonidan o‘tkaziladigan shaxsiy va sayyor qabullar tizimini to‘liq raqamlashtirish orqali qabullar jarayoni ustidan nazorat o‘rnatish maqsadida “Virtual qabulxona” tizimida “Raqamli qabul” moduli ishlab chiqilib, test rejimida ishga tushirildi.

Xulosa qilib aytganda, aholi muammolarini tezkor va manzilli hal etish **O‘zbekiston Prezidenti rahbarligi yuritilayotgan xalqchil siyosatning eng ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan**.

Endi oldimizda turgan muhim vazifalardan biri tizimni to‘liq raqamlashtirishdan iborat. Shu maqsadda fuqarolarning barcha turdagi murojaatlarini to‘liq nazoratga olish, vazirlik va idoralarning, mahalliy hokimiyat organlarining murojaatlar bilan ishlash faoliyatini takomillashtirish, o‘zining xususiyatiga ko‘ra noyob bo‘lgan “mahalla yettiligi” instituti va mahalliy kengashlar so‘rovlari asosida hududlarda rahbarlar qabulini tashkil etib borish tizimlarini to‘liq raqamlashtirish kabi qator loyihalar ustida ishlanmoqda.

Asosiy maqsad davlatimiz rahbarining Prezident xalq qabulxonasi oldiga qo‘ygan bosh vazifani sifatli bajarish, ya’ni xalqimizning har qanday masala bo‘yicha tezkor va sodda murojaat qilishi uchun yanada qulay shart-sharoit yaratish, fuqaro ko‘targan masala haqiqatda hal etilganini raqamli tizim orqali obyektiv nazorat qilishni ta’minlashdir.

Eksport bo‘yicha 2030-yilga qadar oltinsiz eksport hajmini har yili o‘rtacha 15 foiz oshirish, tayyor va yarim tayyor mahsulotlar ulushini 70 foizga yetkazish vazifasi belgilangan.

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 24-sentabr, 198-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

O‘zbekistonning 35 yillik mustaqillik tarixi iqtisodiyotning shakllanishi, tarkibiy o‘zgarishi va jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuvi bilan kechgan murakkab jarayonni qamrab oladi. Bu davrda mamlakat oldida turli bosqichlarda ayro iqtisodiy vazifalar turgan. Dastlab milliy iqtisodiy tizimni yaratish, iqtisodiy mustaqillikni ta’minlash va barqarorlikni saqlash ustuvor bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish, bozor institutlarini rivojlantirish va iqtisodiyotni modernizatsiya qilishga e’tibor kuchaydi. 2017-yildan esa iqtisodiy siyosatda liberallashtirish, tashqi bozorlarga ochilish, investitsiyalarni jalb qilish va xususiy sektor rolini oshirish jarayoni yangicha sur’at oldi.





Jamshid SHARIPOV,
“Taraqqiyot strategiyasi” markazi bo‘lim boshlig‘i

Tahlil

Iqtisodiy islohotlar:

MAQSAD FAQAT O‘SISH EMAS, HAQIQIY QIYMAT YARATISH

Bugun ushbu jarayonlarning natijasi mamlakat iqtisodiyotining ko‘lami va tarkibida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Yangi tahrirdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi erishilgan natijalarni mustahkamlash bilan birga iqtisodiyotni yanada yuqori unumdorlik va raqobatbardoshlikka olib chiqish uchun 2030-yilga qadar aniq marralarni belgilab berdi.

Mustaqillikning dastlabki bosqichida O‘zbekiston uchun asosiy vazifa milliy iqtisodiyotni shakllantirish va barqaror ishlashini ta’minlash edi. Milliy valyuta, bank-moliya va soliq tizimlari, tashqi iqtisodiy faoliyatning milliy mexanizmlari kabi bozor iqtisodiyotining muhim institutlari shakllantirildi.

Bu davrdagi iqtisodiy siyosatning muhim xususiyati bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o‘tish bilan birga makroiqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga intilish bo‘ldi. Mamlakatning ishlab chiqarish salohiyati saqlab qolindi. Ichki bozorni asosiy tovarlar bilan ta’minlash imkoniyati kengaytirildi. Xususiy tadbirkorlik va fermerlik uchun institutsional asoslar shakllantirildi.

2017-yildan boshlangan bosqichda esa iqtisodiy siyosatning mazmuni va islohotlar sur’ati sezilarli darajada o‘zgardi. Prezidentimiz rahbarligida iqtisodiyotni liberallashtirish va tashqi dunyoga ochishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Valyuta bozorining liberallashtirilishi, tashqi savdo rejimining soddalashtirilishi, soliq va bank tizimlarining isloh qilinishi, tadbirkorlik uchun ma’muriy to‘siqlarning qisqartirilishi, xususiy sektor va xorijiy investorlar uchun imkoniyatlarning kengaytirilishi iqtisodiy muhitni sezilarli darajada o‘zgartirdi.

Ayniqsa, 2017-yilda valyuta siyosatining liberallashtirilishi iqtisodiyotning tashqi bozor bilan aloqalarini kuchaytirish uchun qulay shart-sharoit yaratdi. Korxonalarning valyuta resurslaridan foydalanishi yengillashdi. Eksport-import operatsiyalari uchun imkoniyatlar kengaydi. Bu jarayon keyingi yillarda investitsiya va tashqi savdo ko‘rsatkichlarining jadal o‘sishiga ta’sir ko‘rsatgan omillardan biri bo‘ldi.

Ikki bosqichning umumiy natijasini iqtisodiyotning uzoq muddatli dinamikasi orqali baholash mumkin. 2000-yilda 13,7 milliard dollar bo‘lgan yalpi ichki mahsulot 2025-yilda 147,1 milliard dollarga yetdi. Aholi jon boshiga YIM esa 557 dollardan 3881 dollarga oshdi. Bu ko‘rsatkichlar mamlakat iqtisodiyotining ko‘lami so‘nggi 25 yilda sezilarli kengayganini ko‘rsatadi. Dollardagi nominal qiymatlar valyuta kursi va narxlar dinamikasi ta’sirida o‘zgarishini inobatga olgan holda ham iqtisodiyotning ishlab chiqarish va ichki bozor salohiyati ancha yuqori ko‘tarilgani aniq.

Iqtisodiy o‘sishning muhim tayanchi investitsiyaviy faollikning kuchayishi bo‘ldi. Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 2000-yildagi 0,7 trillion so‘mdan 2025-yilda 591,1 trillion so‘mga yetdi. Xorijiy investitsiyalar hajmi esa 2017-yildagi 4,5 milliard dollardan 2025-yilda 43,1 milliard dollarga ko‘tarildi.

Investitsiyalarning o‘sishi iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish, infratuzilmani yangilash va texnologik modernizatsiya uchun moliyaviy baza kengayganini anglatadi. Shu bilan birga, investitsiyalarning keyingi bosqichdagi samarasi ularning hajmidan ko‘ra, qanday tarmoqlarga kiritilayotgani va qancha qo‘shilgan qiymat yaratayotgani bilan belgilanadi. Bu masala 2030-yilgacha bo‘lgan iqtisodiy siyosatda alohida ahamiyat kasb etadi.



Sanoatdagi o‘zgarishlar iqtisodiyotning tarkibiy transformatsiyasini yanada aniq ko‘rsatadi. Sanoatda qo‘shilgan qiymat 2010-yildagi 8,8 milliard dollardan 2025-yilda 36,5 milliard dollarga yetdi. Qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmi ham 1,6 trillion so‘mdan 52,6 trillion so‘mga oshdi. Bu sanoat ishlab chiqarishining iqtisodiyotdagi salmog‘i ortib, xomashyoni qayta ishlash va ichki ishlab chiqarish zanjiri kengayganini ko‘rsatadi.

Eksportdagi o‘zgarishlar esa iqtisodiyotning tashqi bozorga integratsiyasi nuqtayi nazaridan muhim. Oltinsiz eksport hajmi 2016-yildagi 9,3 milliard dollardan 2025-yilda 24 milliard dollarga yetdi. Eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar ulushi 26 foizdan 52 foizga ko‘tarildi. Demak, eksport o‘sishining muhim qismi uning tarkibiy o‘zgarishi bilan bog‘liq. Qayta ishlangan mahsulotlar ulushining ortishi tashqi bozorda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish va milliy ishlab chiqaruvchilarning global qiymat zanjiridagi ishtirokini kengaytirish imkonini beradi.

Energetikadagi natijalar ham iqtisodiy o‘sish uchun zarur infratuzilma shakllanganini ko‘rsatadi. Elektr energiyasi ishlab chiqarish 2000-yildagi 46,8 milliard kilovatt-soatdan 2025-yilda 86,9 milliard kilovatt-soatga yetdi. Ishlab chiqarish va aholi ehtiyojlarining o‘sishi sharoitida energiya ta’minotini kengaytirish sanoat loyihalarini amalga oshirish va yangi investitsiyalarni qabul qilish imkoniyatining muhim shartiga aylandi.

Shu tariqa mustaqillik yillarida iqtisodiyotning asosiy ko‘rsatkichlari bilan birga rivojlanish mexanizmi ham o‘zgardi. Dastlab milliy iqtisodiy tizim va uning barqaror ishlashini ta’minlashga qaratilgan vazifalar ustuvor bo‘lgan bo‘lsa, keyingi bosqichda iqtisodiyotni ochish va liberallashtirish jarayoni tezlashdi. Natijada bugungi O‘zbekiston iqtisodiyoti kattaroq ichki bozor, yuqori investitsiyaviy faollik, kengayib borayotgan sanoat bazasi va diversifikatsiyalanayotgan eksport salohiyatiga ega.



Yangi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan maqsadlar ana shu iqtisodiy bazaga tayangan holda shakllangan. Ularning umumiy xususiyati iqtisodiyot hajmini oshirish bilan birga o‘sish manbalarini diversifikatsiya qilish va mahsuldorlikni oshirishga qaratilganidir.

Eng yirik maqsad — 2030-yilga qadar yalpi ichki mahsulot hajmini 240 milliard dollardan oshirish, aholi jon boshiga YIMni esa 5800 dollardan yuqori darajaga yetkazish. 2025-yildagi 147,1 milliard dollarlik ko‘rsatkichdan kelib chiqib, bu marra iqtisodiyotning keyingi besh yilda yuqori sur’atda o‘sishini talab etadi.

Biroq bunday o‘sishni ta’minlash uchun avvalgi davrdagi resurslar va investitsiyalarni ko‘paytirishning o‘zi yetarli emas. Mehnat unumdorligini oshirish, xususiy investitsiyalar oqimini ko‘paytirish, texnologik yangilanishni jadallashtirish va yuqori qo‘shilgan qiymatli tarmoqlarni rivojlantirish zarur. Aholi jon boshiga YIMning 5800 dollardan oshirilishi esa iqtisodiy o‘sishning aholi farovonligi bilan bog‘liq natijalarini kuchaytirishni taqozo etadi.

Sanoatda qo‘shilgan qiymatni 60 milliard dollarga yetkazish ham shu vazifaning bir qismi. 2025-yildagi 36,5 milliard dollarlik daraja bilan taqqoslaganda, bu sanoatda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish bilan birga, bir birlik resursga to‘g‘ri keladigan iqtisodiy qiymatni oshirishni talab qiladi.

Buning uchun xomashyoni chuqur qayta ishlash, sanoat kooperatsiyasini kuchaytirish, texnologik uskunalarni yangilash va mahalliy korxonalarning xalqaro ishlab chiqarish zanjirlariga kirishini kengaytirish muhim. Shu nuqtayi nazardan, sanoatdagi o‘sishning asosiy ko‘rsatkichi ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi emas, balki yaratilgan qo‘shilgan qiymat va mehnat unumdorligi bo‘lib boradi.

Eksport bo‘yicha 2030-yilga qadar oltinsiz eksport hajmini har yili o‘rtacha 15 foiz oshirish, tayyor va yarim tayyor mahsulotlar ulushini 70 foizga yetkazish vazifasi belgilangan. 2025-yilda tayyor va yarim tayyor mahsulotlar ulushi 52 foiz bo‘lganini hisobga olsak, yangi marra eksport tarkibini yanada yuqori qayta ishlangan mahsulotlar tomon o‘zgartirishni talab qiladi.

Bu vazifa sanoat siyosati bilan bevosita bog‘liq. Tashqi bozorlarda barqaror o‘rin egallash uchun korxonalar mahsulot sifatini xalqaro talablarga moslashtirishi, logistika xarajatini kamaytirishi, ishlab chiqarish unumdorligini oshirishi va tashqi bozorlardagi talab o‘zgarishlariga tez javob bera olishi kerak. Shu sababli eksportning o‘sishi mamlakatning ishlab chiqarish va raqobat muhitidagi o‘zgarishlarning muhim indikatoriga aylanadi.

Investitsiya siyosatida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hajmini yillik o‘rtacha 5-7 foiz oshirish maqsad qilingan. Bunda asosiy vazifa kapital oqimini saqlab qolish bilan birga uni yuqori texnologik ishlab chiqarishlar, eksportga yo‘naltirilgan tarmoqlar va yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan loyihalarga jalb qilishdan iborat. Investitsiyaning iqtisodiy samarasi yangi korxona yoki ishlab chiqarish quvvatining o‘zi emas, balki uning mehnat unumdorligi, eksport va mahalliy korxonalar bilan kooperatsiyaga ta’siri bilan ham o‘lchanadi.

Strategiyada xususiy sektorning iqtisodiyotdagi rolini oshirishga ham katta ahamiyat berilgan. Nodavlat sektor ulushini 85, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YIMdagi ulushini 60 foizga yetkazish maqsadlari iqtisodiy faollikning asosiy qismi xususiy tashabbus va raqobat hisobiga shakllanishini ko‘zda tutadi. Buning amaliy natijasi tadbirkorlar uchun bozorlarga kirish, moliyalashtirish, infratuzilma va raqobat sharoitlarining yanada yaxshilanishi bilan belgilanadi.

Energetikada 2030-yilga qadar iqtisodiyot tarmoqlari va aholiga yetkazib beriladigan elektr energiyasi hajmini 120 milliard kilovatt-soatdan oshirish belgilangan. Iqtisodiyot hajmining o‘sishi energiyaga talabni ham oshiradi. Shuning uchun yangi quvvatlarni ishga tushirish bilan birga tarmoqlarni modernizatsiya qilish, energiya yo‘qotishlarini kamaytirish va qayta tiklanuvchi manbalardan foydalanishni kengaytirish iqtisodiy o‘sishning barqarorligi uchun muhim.

2030-yilgacha belgilangan vazifalarni yaxlit tizim sifatida ko‘rish lozim. YIMni 240 milliard dollardan oshirish sanoat va xizmatlar o‘sishini talab qiladi. Sanoatning kengayishi energiya va investitsiyaga ehtiyojni oshiradi. Eksportning o‘sishi esa raqobatbardosh ishlab chiqarish va samarali logistikasiz ta’minlanmaydi. Bu jarayonlarning barchasida xususiy sektor va inson kapitali hal qiluvchi omillardan biri bo‘lib qoladi.

Shu jihatdan 2030-yilga qadar iqtisodiy vazifalarni birgina yuqori o‘sish maqsadi bilan ifodalash to‘g‘ri emas. Gap iqtisodiyot hajmini oshirish bilan birga mehnat unumdorligini ko‘tarish, qo‘shilgan qiymatni ko‘paytirish, eksport tarkibini yaxshilash va xususiy sektorning iqtisodiy faolligini kengaytirish haqida bormoqda.

Mustaqilligimizning 35 yillik natijalari shuni ko‘rsatadiki, mamlakat iqtisodiyoti o‘z taraqqiyotining turli bosqichlarida turli vazifalarni hal qildi: dastlab milliy iqtisodiy tizim va barqarorlikning asoslari yaratildi, keyin iqtisodiyotni liberallashtirish va tashqi bozorlarga ochish jarayoni tezlashdi. Bu ikki bosqichning natijasi bugungi iqtisodiy ko‘lam va salohiyatda namoyon bo‘lmoqda.

Endi asosiy vazifa shu salohiyatdan yanada samarali foydalanishdir. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan 240 milliard dollardan ziyod YIM, 60 milliard dollarlik sanoat qo‘shilgan qiymati, 70 foizli tayyor va yarim tayyor mahsulotlar eksporti hamda xususiy sektor ulushini oshirish kabi maqsadlar aynan shu vazifaga xizmat qiladi.

Demak, islohotlarimizning so‘ngi o‘n yilligida iqtisodiy siyosatning asosiy mezoni faqat o‘sish sur’ati emas, balki har bir investitsiya, har bir ish o‘rni va har bir ishlab chiqarish birligi qancha qo‘shilgan qiymat yaratayotgani bilan belgilanadi. 2030-yilga belgilangan marraning mazmuni ham ana shunda — shakllangan iqtisodiy salohiyatni yuqori unumdorlik, raqobatbardosh ishlab chiqarish va aholi farovonligiga aylantirish.

Agrotarmoq

NISHON CHO‘LLARIDA HOSILDOR KARTOSHKA YETISHTIRILYAPTI



Past-baland adirlikning adog‘i ko‘rinmaydi. Bir qarashda bu joyda bitta nihol ko‘kartirish ham mushkul ekaniga shubha qilmaysiz. Bu yerda faqat yantoqqina o‘z holida bemalol unib o‘sadi. Shu bois, ushbu kenglikda faqat chorva boqilgan. Ilgari Nishon tumanida cho‘lning katta qismi o‘zlashtirilgan. O‘shanda ham bu yerlarga hech kim kelmagan. Joriy yilda mazkur hudud uchun yirik loyiha ishlab chiqilib, tadbirkorlar ish boshladi. Qishloq xo‘jaligi texnikalari jalb etilib, ekin maydoni tayyorlashga kirishildi.



— Tumanimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash uchun zamonaviy agrotexnologiyalar joriy etilmoqda. Shu maqsadda sifatli urug‘lik kartoshka yetishtirish loyihasining dastlabki bosqichi ish boshladi, — deydi Nishon tumani hokimining investitsiya, sanoat va savdo masalalari bo‘yicha o‘rinbosari To‘ychi Hotamov. — Bugun iqlim o‘zgarishi, suv taqchilligi, tuproq unumdorligi pasayishi, bozordagi yangi talablar — bularning barchasi agrartarmoq oldiga yangi vazifalar qo‘ymoqda. Shu bois, “Uzagrostar xolding” hamda uning muassisligidagi ixtisoslashgan kompaniyalar tomonidan shu paytgacha samarasiz bo‘lgan cho‘l hududining 2600 gektari o‘zlashtirildi. Shundan 1330 gektariga “Qashqadaryo Agro star” tomonidan zamonaviy usulda chorva ozuqasi va “Bulung‘ur Agro star” korxonasi tomonidan esa mahalliy tadbirkor hamkorligida 400 gektarda urug‘lik kartoshka yetishtirish yo‘lga qo‘yildi. Ayni pallada dalada ish qizg‘in.

Nishon tumanining chekka hududi, qo‘shni Turkmaniston bilan chegaradagi Yangiobod mahallasidagi cho‘lning 400 gektariga Niderlandiyadan keltirilgan yuqori sifatli, elita avlodli kartoshka urug‘ini ekishga start berildi. Loyiha doirasida zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanilmoqda. Shu orqali hosildorlikni oshirishga erishiladi.

— Mazkur hududdagi har bir jarayon xorijlik mutaxassislar ishtirokida, ilmiy asosda, zamonaviy texnologiyalar yordamida bajarilmoqda, — deydi To‘ychi Hotamov. — Jumladan, iqlim sharoitidan tortib, tuproqning tarkibi, namlik darajasigacha bo‘lgan barcha jihat hisobga olingan. Shuningdek, agronomlar kartoshka yetilgunga qadar doim nazorat qilib boradi. Ular boshchiligida o‘z vaqtida agrotexnik tadbirlar tashkil etiladi. Bundan tashqari, kelgusida yosh mutaxassislar uchun shu yerning o‘zida malaka oshirish imkoniyati ham yaratiladi.

Loyiha bilan tanishar ekanmiz, ekin maydonining qay usulda sug‘orilishi qiziqtirdi. Boisi, hudud katta va notekis. Shunday murakkab sharoitda dehqonchilik qilish uchun hududni mutaxassislar jiddiy o‘rgangan. Shu asosida sug‘orishda zamonaviy, tejamkor usuldan foydalanilgan. Xususan, ayni paytda dalada Avstriyaning “Bauer” kompaniyasi ishlab chiqargan zamonaviy aylanma yomg‘irlatib sug‘orish tizimi o‘rnatilgan. Hozir ulardan 6 tasi ishlayapti. Loyiha yakuniga qadar bunday tizimlar soni 16 taga yetkaziladi. Shuningdek, suvni nasos orqali yetkazib berish uchun zarur quvurlar tortilgan. Ular sig‘imi 50 ming kub metr bo‘lgan yangi suv saqlash inshootidan dalaga obihayot yetkazib beradi. Ayni paytda yerni ekishga tayyorlash va elektr ta’minotini yo‘lga qo‘yish ishlari ham bajarilmoqda.

Shu kungacha hududda 2600 gektar yer o‘zlashtirilgan. Kartoshka yetishtirish loyihasining umumiy qiymati 30 milliard so‘mni tashkil etadi. Natijada 10 ming tonna urug‘lik kartoshka zaxira qilish ko‘zda tutilgan. Soha vakillarining ma’lum qilishicha, hozir yerga qadalgan kartoshka urug‘i joriy yil noyabrida pishib, yetiladi. Gektaridan kamida 35-40 tonnagacha hosil olish reja qilingan.

Loyiha doirasida muzlatkich omborlar barpo etish, chorvachilik fermasini tashkil qilish kabi yo‘nalishlar ham bor. Bu boradagi ishlar bosqichma-bosqich bajariladi. E’tiborlisi, tashabbus tufayli 500 ta yangi doimiy ish o‘rni ochiladi. Bu hudud aholisining daromadini oshirishga xizmat qiladi.

Qashqadaryoda bu kabi loyiha oldin ham amalga oshirilgan. Xususan, 2022-yilda Shahrisabz tumanidagi G‘elon, Ko‘l, Sarchashma, Sayyod hamda Hisorak mahallalarida ishsiz aholining bandligini ta’minlash maqsadida 3000 gektardan ortiq lalmi yer o‘zlashtirilgan. Unga uzoq tog‘li hududdagi Tamshush daryosidan qariyb 13 kilometr masofaga suv olib kelinib, kartoshka ekilgan. Natijada hududdagi aholining bandligi ta’minlanib, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmi oshdi.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

BU YER HALI ZO‘R BO‘LADI

Iftixor



Kengesboy KARIMOV,
O‘zbekiston xalq yozuvchisi,
Qoraqalpog‘iston xalq shoiri

Boshlanishi 1-betda

Og‘amiz valiy ekan. Keyingi o‘n yil ichida Qoraqalpog‘istonning qiyofasi tanib bo‘lmas darajada o‘zgardi va yangi, obod yurtga aylandi.

Prezidentimizning Qoraqalpog‘istonga tashrifi chog‘ida kelgusi yillarda bu yerda amalga oshiriladigan ishlar bo‘yicha ulkan, misli ko‘rilmagan rejalar belgilandi.

Shiddat bilan olg‘a intilayotgan bugungi zamonda taraqqiyotni elektr quvvatisiz tasavvur etish qiyin. Sababi, elektr quvvati sanoatning eng muhim tarkibiy qismidir. Har kuni uyimizga nur taratayotgan oddiy chiroqdan tortib, kon qazib chiqarishda ishlatiladigan ulkan uskunalargacha uzluksiz elektr quvvati talab qilinadi. Yurtimizga sarmoya kiritish istagida bo‘lgan xorijlik investorlar ham, birinchi navbatda, bo‘lajak korxonani qurib ishga tushirish uchun elektr ta’minoti holati qanday ekani bilan qiziqishi turgan gap.

Keyingi yillarda Qoraqalpog‘istonda elektr quvvati ishlab chiqarish hajmi keskin ortdi. Bu, birinchi navbatda, shamol generatorlari va quyosh panellari yordamida hosil qilinayotgan quvvatlarga taalluqli. Kelgusida, ya’ni 2030-yillarga borib bu ishlar ko‘lami yanada kengayadi va ishlab chiqarish quvvatini 3300 megavattga yetkazish ko‘zda tutilmoqda. Shuningdek, umumiy quvvatning 76 foizi “yashil” energiya hisobidan ishlab chiqariladi. Natijada millionlab kub metr tabiiy gaz va neft mahsulotlari tejalib, biz nafas olayotgan havo minglab tonna zaharli gazlardan xalos bo‘ladi. “Yashil” energiya quvvati ishlab chiqarish loyihalari uchun 2,5 milliard dollardan kam bo‘lmagan miqdorda investitsiya jalb qilinadi.

Prezidentimiz kelgusi yili Nukusga zamonaviy tezyurar poyezd qatnovi yo‘lga qo‘yilishini ma’lum qilganida, zalda o‘tirganlar ushbu yangilikni gulduros qarsaklar bilan kutib oldilar.

Davlatimiz rahbarining tarixiy tashrifidan bir kun oldin qadimiy sivilizatsiya o‘chog‘i bo‘lmish Xiva shahrida mamlakatimiz miqyosida o‘tkazilgan “Yangi O‘zbekiston mushoirasi”ga borgan edik. Anjuman ishtirokchilari tezyurar poyezddan tushayotgan xorijlik sayyohlarning cho‘l qo‘ynidagi mo‘jiza shaharga hayrat bilan boqayotganini ko‘rib, ko‘nglimiz “Bu — O‘zbekiston, ko‘rib qo‘yinglar, bu bizning Vatanimiz!” deya g‘ururga to‘lib-toshgan edi. Nasib qilsa, Mo‘ynoqni ko‘rishga shoshayotgan sayyohlarni Nukus vokzalida ko‘radigan kunlarimiz ham olis emas.

Qoraqalpog‘iston aholisi tez sur’atlar bilan o‘smoqda. Agar xotiram pand bermasa, 1984-yilda bu yurtda bir millioninchi farzand tug‘ilib, Ibroyim og‘amiz unga bag‘ishlab “Millionboy azamatga” degan she’r yozgan edi. Bugungi kunga kelib esa aholi soni ikki milliondan oshib ketdi. Shunga mos ravishda turar joy va infratuzilma inshootlariga talab ham ortdi. Prezidentimiz bu masalaning ham yechimini oldindan o‘ylab qo‘ygan ekan. Nukus shahriga yondosh hududda “Yangi Nukus” sha-harchasini qurish tashabbusi qoraqalpog‘iston-liklar ko‘ngliga umid va quvonch baxsh etdi desam, ayni haqiqatni aytgan bo‘laman.

Zamondosh shoirimiz “O‘zbek faqat bolam deydi, bolam deydi” deb topib aytganidek, xalqimiz azaldan bolajon. Nukusning yonginasida barcha qulay-liklarga ega zamonaviy turar joylar qurilishi o‘sib-unayotgan aholimiz uchun katta imkoniyat-dir.

Prezidentimiz Qoraqalpog‘iston hududida hali to‘liq o‘rganilmagan yer osti va yer usti boyliklari mavjudligiga alohida urg‘u berdi. Masalan, Ustyurt tekisligida joylashgan Borsakelmas tuz koni millionlab tonna zaxiraga ega. Agar yiliga 100 ming tonna tuz qayta ishlansa, qanchadan qancha daromad keltirgan bo‘lardi! Qushxona tog‘idagi kondan 50 ming tonna natriy sulfat qazib chiqarish mumkin.

Bundan tashqari, hali to‘liq foydalanilmagan boshqa imkoniyatlar ham serobligi ta’kidlandi. Masalan, to‘qimachilik sanoatini yo‘lga qo‘yish, charmni qayta ishlash, avtomobilsozlik uchun zarur detallar ishlab chiqarishni tashkil etish kabi yo‘nalishlar bor. Qolaversa, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, xususan, pomidordan tomat pastasi yoki quritilgan pomidor qoqisi tayyorlash orqali eksportbop mahsulotlar yaratish mumkinligi tayin. Bu kabi ishlarni tashkil etish uchun, eng avvalo, hokimlar va mutasaddi tashkilotlar rahbarlari mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishi kerak.

Qoraqalpoq xalqi davlatimiz rahbarining safarini intiq kutgan edi. Bunga birgina hayotiy misolni keltirib o‘tmoqchiman.

Xiva shahridagi “Yangi O‘zbekiston mushoirasi”dan qaytib, Nukusdagi qovun bozoriga Sirojiddin Sayyid bilan birga bordik. Shoirni ko‘rgan zahoti qovun sotayotgan dehqon ayolning yuzi yorishib, bunday dedi:

— Sizni tanidim, siz Prezidentimiz bilan birga kelgansiz. Biz u kishini yaxshi ko‘ramiz. Prezidentimiz bilan birga bu yurtga qut-baraka keladi. Iltimos, shu so‘zlarimni Prezidentimizga yetkazib qo‘ya olasizmi?

Bejiz Berdaq bobomiz “Qadrimni xalq bilar” demagan ekan.

Kelasi yili ulug‘ qoraqalpoq shoiri Berdaq Qarg‘aboy o‘g‘li tavalludining 200 yilligi keng nishonlanishi ta’kidlandi. Bu, albatta, millatga va adabiyotga yuksak e’tibor namunasidir.



Prezidentimizning joriy yil 18-19-sentabr kunlari Qoraqalpog‘istonga tashrifi hudud hayotining barcha yo‘nalishi qatori ta’lim-tarbiya sohasini rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

SOHAGA YUKSAK E’TIBOR

zimmamizga katta mas’uliyat yuklaydi

Aks-sado



Begdulla SULTONOV,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi

Bugun mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish, bolalarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirish va zamonaviy ta’lim muhitini yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu boradagi islohotlardan asosiy maqsad har bir bolaning sifatli ta’lim-tarbiya olishi uchun teng imkoniyat yaratishdan iborat.

Esimda, bir paytlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi xalq ta’limi vaziri bo‘lib ishlagan paytimda juda ko‘p qiyinchiliklarni boshdan o‘tkazdik. Maktablarni rekonstruksiya qilish, yangi maktab qurilishi uchun mablag‘ topa olmay qiynalganmiz.

Prezidentimiz bilan uchrashuvda o‘tgan qiyin yillarni bir-bir esladik va bugungi sharoit bilan taqqoslab ko‘rdik.

Qoraqalpog‘istonda ta’lim sifatini oshirishga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. So‘nggi 10 yilda hududdagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamda umumiy o‘rta ta’lim maktablari yangidan qurilishi, rekonstruksiya qilinishi va mukammal ta’mirlanishi uchun davlat byudjetidan 2,5 trillion so‘m yo‘naltirilgani fikrimizning yaqqol tasdig‘idir.

2016-yili hududda 318 ta maktabgacha ta’lim muassasasi mavjud edi. Bugunga kelib, ular soni 1782 taga, umumiy o‘rta ta’lim maktablari soni esa 703 tadan 742 taga yetkazildi. Natijada Qoraqalpog‘istonda oxirgi 10 yilda maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qamrov 27 foizdan 84 foizni tashkil etdi. Maktab bitiruvchilarining oliy o‘quv yurtlariga kirish ko‘rsatkichi 8 foizdan 32 foizga chiqdi.

Prezidentimizning tashrifida Qoraqalpo-g‘istonda maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qamrovni 100 foizga yetkazish topshirig‘i berildi. Buning uchun xususiy bog‘cha ochish niyatidagi tadbirkorlarga tijorat banklari tomonidan kredit 15 yil muddatga, 5 yillik imtiyozli davr bilan, yillik 7 foiz ustama to‘lash sharti bilan ajratilishi qayd etildi.

Qoraqalpog‘istonlik yoshlar orasida oliy ma’lumotli mutaxassislarni ko‘paytirish maqsadida so‘nggi yillarda maktab bitiruvchilariga oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun qo‘shimcha 6500 kvota ajratilayotgani yoshlar va ota-onalari tomonidan juda katta xursandchilik bilan kutib olinmoqda.

Shu bilan birga, yaratilgan imkoniyatlardan foydalanib, Qoraqalpog‘iston hududida oliy toifali pedagoglar soni 1617 dan 5633 nafarga yetdi. Milliy sertifikatga ega o‘qituvchilar 207 dan 13007 nafarga, xalqaro sertifikatli muallimlar soni1 dan 4436 nafarga, xorijlik o‘qituvchilar 5 dan 82 nafarga oshgan.

Prezidentimizning topshirig‘iga binoan shu yilning o‘zida Nukus davlat pedagogika institutining o‘quv binosi hamda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ijod va ixtisoslashtirilgan zamonaviy maktab ishga tushirildi. Shu bilan birga, oxirgi yillarda Qoraqalpog‘istonda qator yirik ijtimoiy soha va infrastruktura obyektlari ishga tushirildi. Xususan, Bo‘zatovda sanatoriy, Nukusda onkologiya va radiologiya markazi, Nukus shahrida gimnastika markazi hamda Konservatoriya filiali ish boshladi.

Davlatimiz rahbarining sohaga yuksak e’tibori bizga yangi kuch bag‘ishlab, zimmamizga katta mas’uliyat yuklaydi.

Munosabat

Qoraqalpog‘istondagi shahar va tumanlarda yangi sanoat korxonalari hamda zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlari, energetika obyektlari, tibbiyot va ta’lim muassasalari, savdo hamda xizmat ko‘rsatish shoxobchalari barpo etilayotgani mahallalar qiyofasini yangilab, aholi uchun yangi mehnat, daromad va munosib turmush imkoniyatlarini yaratmoqda.



Guljan XALMURATOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

O‘ZGARISHLAR AHOLI HAYOTIDA IFODASINI TOPMOQDA

Bugun respublikaning qay bir go‘shasiga bormang, shahar va qishloqlarni yangilash, aholini uy-joy bilan ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar qilinayotganini ko‘rasiz. Har oyning oxirgi haftasida xalq bilan muloqot qilish, odamlarni o‘ylantirayotgan masalalarga yechim topish maqsadida hududlarda bo‘lib, saylovchilar bilan muloqotlar o‘tkazamiz. Ochig‘i, har gal biror o‘zgarish yoki yangilanishning guvohi bo‘lamiz. Eng muhimi, odamlar kayfiyati yuqori, mamlakatdagi islohotlardan mamnun.

Prezidentimizning Qoraqalpog‘istonga tashrifi hudud taraqqiyotiga yangi sur’at va mazmun bag‘ishlashga qaratilgan muhim tashabbuslar, istiqbolli g‘oyalar va amaliy yechimlarga boy bo‘ldi. Ushbu tashrif so‘nggi yillarda Qoraqalpog‘istonda izchil davom etayotgan keng ko‘lamli bunyodkorlik va yangilanish jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqish yo‘lida navbatdagi muhim qadamdir.

Tashrif dasturining nihoyatda keng qamrovli ekani ham hududni har tomonlama rivojlantirishga qaratilayotgan yuksak e’tibor va g‘amxo‘rlikning yana bir amaliy ifodasi bo‘ldi. Davlatimiz rahbari sanoat va qishloq xo‘jaligi, ta’lim va tibbiyot, transport, turizm hamda sport sohalaridagi ishlar, zamonaviy obyektlar va istiqbolli loyihalar bilan yaqindan tanishdi.

Har bir hududda inson qadrini ulug‘lash, aholi uchun munosib turmush sharoitini yaratish, yangi ish o‘rinlarini ko‘paytirish, hududning iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladigan aniq vazifa va ustuvor yo‘nalishlar belgilab berildi.

Prezidentimiz raisligida Nukus shahrida Qoraqalpog‘istonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalariga bag‘ishlab o‘tkazilgan yig‘ilish mavjud imkoniyatlarni iqtisodiy natijaga aylantirish, investitsiya va yangi ish o‘rinlarini ko‘paytirish, aholi daromadi hamda turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan aniq vazifalarni belgilab berishga xizmat qiladi.

Sun’iy intellekt va data markazlar uchun tashkil etilgan maxsus zonada 8 milliard dollarlik 6 ta loyiha amalga oshirilishi Qoraqalpog‘istonni zamonaviy raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt markazlaridan biriga aylantirish, yuqori malakali va daromadli ish o‘rinlarini ochish, raqamli xizmatlar eksportini ko‘paytirish hamda hudud iqtisodiyotida yangi texnologik o‘sish nuqtalarini shakllantirishga turtki beradi.

Uch yilda Nukus shahri, Qo‘ng‘irot, Qorao‘zak va Taxiatosh tumanlarida 1500 yuqori daromadli ish o‘rni ochish, bulutli texnologiyalar va sun’iy intellekt sohasida yillik eksportni 600 million dollarga yetkazish vazifasi qo‘yilgani Qoraqalpog‘istonda yangi avlod raqamli iqtisodiyotini shakllantirish, yuqori malakali va daromadli ish o‘rinlarini ochish imkonini beradi.

Kelasi yili Qoraqalpog‘istonga 5 milliard dollar investitsiya jalb qilinishi, hech shubhasiz, hududda sanoat va investitsiyaviy faollik ko‘lamini yanada kengaytirishga qaratilgan ustuvor maqsadlarning ifodasidir. Bu, o‘z navbatida, yangilarini ishga tushirish, zamonaviy infratuzilma yaratish, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish va minglab yangi ish o‘rinlari ochish uchun mustahkam asos bo‘ladi.

Qoraqalpog‘iston bugun keng ko‘lamli yangilanishlar, ulkan bunyodkorlik va iqtisodiy o‘zgarishlar maydoniga aylanmoqda. Hududdagi har bir islohot, har bir yangi loyiha, avvalo, odamlarning turmush sharoitini yaxshilash, ular uchun munosib mehnat va daromad manbalarini yaratish, zamonaviy infratuzilmani shakllantirishga qaratilgan.

Nuqtayi nazar

“HAMISHA SEN XIZMAT ETGIL XALQ UCHUN...”

Prezidentimizning Qoraqalpog‘istonga bu galgi tashrifi ham ana shu ezgu ishlarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan tashabbuslarga boy bo‘ldi. Zero, bugun bu zaminning har bir tumani, har bir mahallasi chin ma’noda ulkan qurilish maydoniga, innovatsiyalar maskaniga va iqtisodiy yuksalish markaziga aylangan. Davlatimiz rahbarining bu o‘lka uchun qabul qilgan tarixiy qarorlari esa yangilanishlarning huquqiy va iqtisodiy poydevorini mustahkamlab bermoqda. Bundan 9-10 yil oldin hozirgidek katta burilish bo‘ladi deyilsa, ko‘pchilik ishonmasdi.

Tashrif dasturi nihoyatda keng qamrovli bo‘lib, davlatimiz rahbari bir necha tuman va shaharda sanoat, qishloq xo‘jaligi, ta’lim, tibbiyot, transport, turizm va sport sohalariga oid 11 ta obyekt faoliyati bilan tanishdi. Yangi loyihalarning ishga tushirilishi va qurilishiga start berilib, ularning kelgusi istiqbollari belgilab berildi.

Davlatimiz rahbari lavozimga kirishgan ilk kunlardanoq Qoraqalpog‘istonga alohida e’tiborini his etganmiz. Ana o‘shanda “Madaniyat Mo‘ynoqdan boshlanadi” degan ezgu va jasoratli g‘oya asosida eng chekka, murakkab hududlarda ham katta o‘zgarishlarni boshlashga qat’iy kirishildi. 2017-yildan buyon faqat Qoraqalpog‘istonga taalluqli 80 dan ziyod tarixiy farmon va qaror qabul qilingani bu e’tiborning amaliy ifodasidir.

So‘nggi yillarda Qoraqalpog‘iston iqtisodiyotida sezilarli o‘sish kuzatilmoqda. 2017-yilda respublikaning yalpi hududiy mahsuloti 13,5 trillion so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, bugun ushbu ko‘rsatkich 54,1 trillion so‘mdan oshdi. Faol tadbirkorlik subyektlari soni 2,5 barobar ko‘payib, 26,5 mingtaga yetdi. Mahsulot ishlab chiqarishda xususiy sektorning ulushi 66 foiz bo‘ldi.

Sanoatdagi o‘zgarishlarning yana bir muhim omili — investitsiya muhitining yaxshilanishi. Qoraqalpog‘istonga kirib kelayotgan xorij sarmoyasi hajmi yil sayin oshib bormoqda. O‘tgan yili hududga 1,8 milliard dollar to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiya kiritildi. Bu mablag‘ hisobiga yangi korxonalar, zamonaviy energetika obyektlari, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish quvvatlari barpo etilmoqda.

Endi imkoniyatlardan ilmiy yondashuv asosida foydalanib, resursdan tayyor mahsulotgacha bo‘lgan zanjirni qamrab oladigan yangi sanoat va investitsiya xaritasi yaratiladigan bo‘ldi. Masalan, Qo‘ng‘irot — Qorao‘zak — Taxiatosh yo‘nalishi Qoraqalpog‘istonning “yashil sanoat yo‘lagi” — “intellektual iqtisodiyot uchburchagi”ga aylanadi. Shuningdek, sun’iy intellekt va data-markaz loyihalari uchun tashkil etilgan maxsus hududda 8 milliard dollarlik 6 ta loyiha amalga oshiriladi.

Prezidentimiz mutasaddilarga 1-oktabr-gacha besh yillik dastur ishlab chiqib, investorlar uchun 1 gigavatt quvvatli barqaror elektr ta’minotini yo‘lga qo‘yishni topshirdi.

Uch yilda Nukus shahri, Qo‘ng‘irot, Qorao‘zak va Taxiatosh tumanlarida yuqori daromadli 1500 ish o‘rni ochish, bulutli texnologiyalar va sun’iy intellekt sohasida yillik eksportni 600 million dollarga yetkazish vazifasi belgilandi.

Davlatimiz rahbari tashrif davomida hech bir sohani e’tibordan chetdan qoldirmadi. Asosiy maqsad esa har bir shahar va ovulda qulay turmush sharoitini yaratish, nuroniylarning tajribasi, yoshlarning g‘ayrati va aholi tashabbuskorligini birlashtirish orqali har bir mahallani obod va farovon qilishga qaratildi. Rahbarlar mahalla va ko‘cha biylari bilan ishini erta tongdan hududlarni aylanish, aholi bilan muloqotdan boshlashi zarurligi qayd etildi. Ko‘chalar, ariq va zovurlarni toza tutish, daraxt va gullarni ko‘paytirish, har bir insonda o‘z mahallasi taqdiriga daxldorlik hissini kuchaytirish muhimligi ta’kidlandi.

Oldin bizda bunday imkoniyat, sharoit va keng ko‘lamdagi qurilish hamda obodonlashtirish ishlari bo‘lmagan. Endi barcha imkoniyat mujassam. Faqat og‘izbirchilik bilan oldinga intilish zarur.

Davlatimiz rahbari bilan uchrashuv chog‘ida Prezidentimiz qoraqalpoq xalqining buyuk farzandi, shoir va mutafakkir Berdaq Qarg‘aboy o‘g‘lining “Hamisha sen xizmat etgil xalq uchun, o‘zim dema, g‘amxo‘rlik qil xalq uchun” degan hikmatli so‘zlari bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganini ta’kidladi. Ulug‘ ziyolilarning ilmiy-ijodiy merosini o‘rganish, raqamlashtirish, asrab-avaylash hamda xalqimizga, ayniqsa, yoshlarga yetkazish muhimligi qayd etildi. Kelgusi yili Berdaq Qarg‘aboy o‘g‘li tavalludining 200 yilligini mamlakatimizda munosib nishonlash taklifi bildirildi. Mutasaddilarga bir oyda keng qamrovli dastur ishlab chiqib, uni amalga oshirishni boshlash vazifasi topshirildi.

Qoraqalpog‘iston bugun shunchaki yangilanayotgan hudud emas, u O‘zbekistonning yangi taraqqiyot modelini o‘zida mujassam etgan kuch-qudrat manbaidir. Har bir raqam ortida inson taqdiri, har bir o‘zgarish ortida ertangi kunga ishonch turibdi.



Tatlimurat ATAMURATOV,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Qoraqalpog‘iston bo‘limi rahbari,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi

Qadriga yetish deganda aksariyat maddohlik yoki minnatdorlik bildirishni tushunadi. Aslida, qadriga yetish shu islohotlarga munosib bo‘lish demakdir. Biz berilgan imkoniyatlardan qancha ko‘p foydalansak, qancha ko‘p mehnat qilsak, o‘shanda bu ne’matlarning qadriga yetgan hisoblanamiz. Yana bir marta o‘zimga savol beraman: qachon yaxshiroq qadriga yetamiz?







Kamolot pillapoyasi

YANGILANISHLARNING QADRIGA YETMOQ

Uchinchi Renessans g‘oyasiga munosib bo‘lmoqdir



Zebo QOBILOVA,
Qo‘qon universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori,
filologiya fanlari doktori, professor

O‘zbek tilida shamolning o‘nlab muqobili bor: bo‘ron, dovul, izg‘irin, garmsel, samum, nasim, sabo, shabada. Bu so‘zlar orasidan biz ko‘proq “shabada” so‘zini ishlatamiz. Beixtiyor uni “Yangi O‘zbekiston” iborasi bilan uyg‘un tarzda qo‘llaymiz. Shabada bo‘ronga o‘xshamaydi: u daraxtlarni ag‘darmaydi, tomlarni uchirmaydi, eshikni taraqlatib yopmaydi. Lekin havo o‘zgarganini, bahor kelayotganini birinchi bo‘lib aynan shabada xabar qiladi. Biz uni ko‘rmaymiz, eshitmaymiz, ammo ko‘ngildan his etamiz.

So‘nggi o‘n yilda yurtimizdagi o‘zgarishlarni shabadaga mengzashimiz besabab emas. Bu o‘zgarishlar faqatgina qaror va farmonlar matnida emas, balki kundalik turmushimizning kichik jihatlarida ham namoyon bo‘ladi.

Kamolot yoshiga yetgan har bir yurtdoshimizning xotirasida bir manzara hali ham bor — sentyabr oyi. Sinf xonalari bo‘m-bo‘sh, parta ustida o‘quvchisiga muntazir daftarlar. Bolalar paxta egatlariga sochilgan, o‘qituvchining qo‘lida esa kitob va jurnal emas, tarozi va paxta etagi.

O‘sha paytlarda biz paxta terimini fojia deb emas, odatimiz deb bilardik. Odat so‘zining xavfli joyi ham shunda — u fojialarni yashiradi. Murg‘ak bolalar qo‘llarini paxta chanoqlari tirnab yuborganini, baraklar devoridagi achqimtir va zax hidini, kechqurun to‘satdan chiroqlar o‘chganda kitob va daftarlariga qarab qolgan mungli ko‘zlarning qayg‘usini bir emas, uch avlod boshidan kechirdi. Dunyo bunga qarshi bong urdi, ammo biz buni bilib bilmaganga, ko‘rib ko‘rmaganga oldik.

2011-yilda O‘zbekiston paxtasiga qarshi xalqaro boykot e’lon qilindi va bu boykotga 331 ta yirik brend hamda savdo tarmog‘i qo‘shildi. Daladan ming azob bilan yig‘ib olganimiz paxta dunyo bozorida qora ro‘yxatga tushdi. Bu iqtisodiy sanksiyadan ko‘ra og‘irroq narsa edi. Bu o‘zbek xalqining obro‘si to‘kilishi, o‘z mehnatini, o‘zini qadrlamagan xalqning dunyo bozorida qadrlanmayotgani edi. Bu bizning yuzimizga tutilgan ko‘zgu edi.

Munosabatlarning o‘zgarishi esa tarixiy qarorlardan boshlandi. Prezidentimizning siyosiy irodasi tufayli majburiy mehnat tizimi yo‘qotildi, reja va kvota deganlari bekor qilindi. Yangi klaster tartibi joriy etildi. Natija esa uzoq kuttirmadi: 2021-yilgi paxta mavsumi bo‘yicha Xalqaro mehnat tashkilotining mustaqil monitoring hisoboti mamlakatimizda tizimli majburiy mehnat va bolalar mehnati butkul tugatilganini qayd etdi.

Odatda paxta haqida gapirganda ko‘pchilik eksportni, valyuta tushumini, iqtisodiy manfaatdorlikni o‘ylaydi. Men esa hech qanday valyuta o‘rnini to‘ldira olmaydigan boshqa bir hisob-kitobni o‘ylayman. Bir o‘quvchi bir yilda o‘rtacha 40 kun darsdan qoladigan bo‘lsa, bu 11 yilda 2 o‘quv yilini yo‘qotadi, demakdir. O‘sha yo‘qotilgan 2 yil ichida o‘rgatilmagan matematika, o‘qilmagan kitob, yozilmagan insho qayerda? Ular hech qayerda, ular shunchaki yo‘q. Paxta ertami-kechmi dalalardan yig‘ib olinadi. Bolalarimizning yo‘qotilgan vaqtini esa hech kim hech qachon qaytarib bera olmaydi.



* * *

30 yildan beri oliy ta’lim tizimida dars beraman. Bugun xususiy ta’lim haqida gap ketganda, ko‘pchilik shartnoma to‘lovi va pul haqida o‘ylaydi. Aslida, xususiy ta’limning mohiyati pulda emas — javobgarlikda. Davlat oliygohida talaba tizimga, nodavlat universitetda esa tizim talabaga bog‘liq bo‘ladi. Ana shu o‘zgarish yoshlarimizning ta’limga va fanga munosabatini, ayni paytda oliy ta’limning talabalarga munosabatini o‘zgartirib yubordi. Ota-ona har semestrda pul to‘larkan, albatta, so‘raydi: “Farzandim kimdan ta’lim olyapti? Bu dastur qayerda tuzilgan? Bitiruvchilaringiz qayerda ishlayapti?”. Universitetlar bu savollarga qoniqarli javob bera olmasa, talabasiz qolishi aniq. Mana shu oddiy qoidada ko‘p narsa mujassam.

Yaponiyada talabalarning yarmidan ko‘p qismi xususiy universitetlarda tahsil oladi. Janubiy Koreyaning ilmiy sakrashi aynan xususiy oliygohlar hisobiga bo‘ldi. Dunyo reytinglarida yillar davomida birinchi o‘rinni egallab kelayotgan Garvard, Stenford, Massachusets oliygohlari davlat muassasalari emas. Turkiya esa bor-yo‘g‘i 30 yil ichida vaqf universitetlari orqali butun boshli ilmiy muhitni yangiladi.

Mamlakatimizda bu jarayon boshlanganiga ko‘p bo‘lmadi. Ammo o‘zgarishlar tezligi hayratli. Yangi o‘quv yilida mamlakatimizda 215 ta oliy ta’lim tashkiloti faoliyat yuritayotgan bo‘lsa, shundan deyarli yarmi nodavlat. Bundan o‘n yil oldin ham oliy o‘quv yurtiga kirish juda katta yutuq sifatida ko‘rilgan bo‘lsa, bugun u mustaqil hayotga qadam qo‘yishning navbatdagi imkoniyatiga aylanmoqda.

Qo‘qon universiteti ham mana shu o‘zgarishlarning ma’nosini aniq ko‘rsata olmoqda. Universitet 2019-yilda tashkil etildi. Unda o‘qitish o‘zbek, rus va ingliz tillarida to‘lov-shartnoma asosida olib boriladi. Asrlar davomida Qo‘qon ilm-fan, adabiyot va madaniyat shahri bo‘lgan. Lekin yaqin o‘tmishda Qo‘qon ko‘proq savdo-sotiq yurtiga aylanib qolgandi. Ilm-fanga, madaniyatga, adabiyot va san’atga qiziqadigan bolalar esa o‘qish uchun Toshkentga ketardi. Qo‘qonda yangi universitet paydo bo‘lgani ana shu oqimni sekinlashtirdi. Endilikda yosh mutaxassis o‘z shahrida qoladi, o‘z shahrida dars beradi, tadqiqot olib boradi.

Albatta, muammolar ham yo‘q emas. Ayrim nodavlat universitetlar hali ham sifatdan sonni ko‘proq o‘ylaydi. Ba’zilarida professor-o‘qituvchilar tarkibi faqat qog‘ozdagina mavjud. Biroq buni yashirishning ham hojati yo‘q, chunki kasallikning davosi tizimning o‘zida — sog‘lom raqobatdadir. Zotan, ta’lim bozorida yomon universitet uzoq yashay olmaydi.

* * *

Qadriga yetish deganda aksariyat maddohlik yoki minnatdorlik bildirishni tushunadi. Aslida, qadriga yetish shu islohotlarga munosib bo‘lish demakdir. Biz berilgan imkoniyatlardan qancha ko‘p foydalansak, qancha ko‘p mehnat qilsak, o‘shanda bu ne’matlarning qadriga yetgan hisoblanamiz. Yana bir marta o‘zimga savol beraman: qachon yaxshiroq qadriga yetamiz?

Yangi O‘zbekiston mushoirasi

SHE’R – DAVR RUHINING in’ikosi

Bugungi she’riyat haqida gap borganda uni o‘quvchiga yetkazish masalasi ham tobora muhim ahamiyat kasb etyapti. Chunki she’rni bir xil shaklda taqdim etish, faqat tantanavor davralar, baland ohanglar va odatiy tasavvurlar doirasida ko‘rsatish ixlosmandlar bilan uning orasidagi masofani uzaytirib yubordi. Buni bugun shoirning o‘zi ham yaxshi anglaydi. Shu bois, she’rni kitobxon bilan uchrashtirishning yangi yo‘llari izlanyapti. Turli adabiy loyihalar, mushoiralar, videokontentlar, noodatiy taqdimot va muloqot shakllari sinab ko‘rilmoqda. Maqsad she’riyatning mohiyatini o‘zgartirishdan ko‘ra, unga doir jo‘n va eskirgan tasavvurlarni yangilash, odamlarga uning imkoniyatlarini qaytadan ko‘rsatish.



Xivada o‘tkazilgan “Yangi O‘zbekiston mushoirasi” haqida yozishga kirishganimda shu masala meni ham o‘ylantirdi. Tadbirda kimlar qatnashgani, qaysi shoir qanday she’r o‘qiganiyu ijodkorlarning taassurotlarini ketma-ket intervyu shaklida berish mumkin edi. Zotan bu amaliyotda sinalgan, o‘quvchiga ham tanish usul. Biroq u mushoirada paydo bo‘lgan savollarga javob topish imkonini bermasdi. Shuning uchun bu safar Xivada nimalar bo‘lganini hikoya qilishdan oldin boshqa bir savolga javob izlashni ma’qul ko‘rdik. Nega insoniyat ming yillardan beri she’r yozadi? She’r bizga nima uchun kerak?

She’r tabiatini tadqiq etarkanmiz, masalani shunga yaqin savoldan boshlaymiz: agar biror gapni shunchaki aytish mumkin bo‘lsa, uni she’r vositasida ifodalashga qanday ehtiyoj bor? Gap shundaki, she’rni boshqa so‘zlar bilan qayta hikoya qilib, undagi voqea yoki fikr haqida deyarli hamma narsani aytish mumkin. Shunga qaramay, o‘sha she’rning o‘zini qayta yaratib bo‘lmaydi. Chunki poetik asarda ma’no faqat so‘zlarning lug‘aviy mazmunida yashamaydi. Ritm, takror, qofiya, tovush, so‘zlarning joylashuvi, ular orasidagi uyg‘unlik ham umumiy mazmunni hosil qilishda qatnashadi. Shu bois, she’rni murakkab qurilgan ma’no sifatida ko‘rish kerak. Uning shakli olib tashlansa, o‘rnida aynan o‘sha mazmun qolmaydi.

“Sog‘indim” degan xabar bilan sog‘inch haqidagi yaxshi she’r bir xil mavzudan tug‘ilishi mumkin. Birinchisi, bizga insonning holatini bildiradi. Ikkinchisi esa, shu holatni bir muddat bo‘lsa-da, boshdan kechirish imkonini beradi. Vatan haqida soatlab ma’lumot bersa bo‘ladi. Jumladan, uning tarixini raqamlarda ko‘rsatish, bugungi o‘zgarishlarini millionlab faktlar orqali bayon qilish mumkin. She’r esa Vatan tushunchasining muayyan inson xotirasi va kechinmasidagi tasvirini yuzaga chiqaradi. Shu sabab she’riyatni axborotning bezatilgan shakli deb tushunish uning asl imkoniyatini ancha toraytiradi.

Qadimgi poetik tafakkurni o‘rganib, “psixologik parallelizm” deb ataladigan hodisaga e’tibor qarataylik. Bugunga qadar inson tashqi olamni ichki dunyosidan mutlaqo ajratib idrok etmagan: tabiatdagi harakat bilan odamning holati, tashqarida sodir bo‘layotgan hodisa bilan ichki kechinma doim yonma-yon bo‘lgan. Daraxtning egilishi bilan insonning bosh egishi kabi obrazlar o‘rtasida harakat va holat orqali ruhiy aloqa yuzaga kelgan. Tashqi dunyo mudom insonning ichki tajribasi orqali ma’no kasb etib kelgan. Oradan qancha davru davronlar o‘tmasin, yaxshi she’rda shu xususiyatning parchalarini ko‘rish mumkin. Shoir tashqaridagi voqelikni avval ichki dunyosidan o‘tkazadi. O‘quvchi esa o‘sha ichki tajriba orqali voqeaga qaytadan qaraydi. Shu tariqa hammamizga tanish tushunchalar har bir ijodkorda umuman boshqa mazmun, boshqa ohang, boshqa xotira bilan namoyon bo‘ladi.



Vatan ham shunday tushunchalardan.

Uning jug‘rofiy joylashuvi, aholisi, shaharlari, iqtisodiy ko‘rsatkichlari bor. Bular Vatanning aniq, o‘lchanadigan jihatlari. Insonning Vatan haqidagi tasavvuri esa shu ma’lumotlarning yig‘indisidan kattaroq. Kim uchundir u tug‘ilgan uyi, bolalikda u eshitgan biror jumla, ota-onasi, tili, tarixi, bolasi va hokazo. Bir tushuncha millionlab odamlarning hayotida xuddi shuncha shaxsiy tajriba orqali yashaydi. Adabiyot ana shu tajribalarni ko‘rinadigan, eshitadigan, o‘qiydigan, his qildiradigan holatga olib chiqadi. Quvonchu og‘riqlarni o‘z chegarasidan-da kengroq hajmda aks ettiradi.

Shu rakursdan qaraganda, she’riyatning jamiyat hayotidagi vazifasi ham bo‘yiga, ham eniga kengayadi. U zamonni faqat voqealar ketma-ketligi sifatida qayd etmaydi, balki uning odam tafakkuri va qalbida qoldirayotgan izini ham saqlaydi. Bugun oddiy ko‘ringan bir kechinma yillar o‘tib, o‘sha davr kishisining dunyoni qanday ko‘rganini anglash uchun o‘ta muhim bo‘lishi mumkin. Tarix bilan she’riyatning farqi ham shunda. Tarix nima sodir bo‘lganini qayd etsa, adabiyot o‘sha voqealar orasida yashagan odam nimalarni his qilganini ham kelajakka olib o‘tadi.

Shu sabab she’riyat faqat shoirning o‘zini ifoda etishi bilan tugamaydi. Asarning ikkinchi hayoti uni boshqalar o‘qiganida boshlanadi. Buning uchun esa she’r yozilishi va kitob holida nashr etilishining o‘zi yetarli bo‘lmay qoladigan paytlar bor. Shoir, o‘quvchi va adabiy muhit uchrashadigan makon ham kerak. Mushoira ana shu masalaning qadimdan mavjud juda sodda yechimlaridan biri. Xivada o‘tkazilgan “Yangi O‘zbekiston mushoirasi”ga ham shu nuqtadan qarash qiziq, albatta.

Prezidentimizning Xorazm viloyatiga tashrifi davomida belgilangan vazifalar ijrosi doirasida tashkil etilgan anjuman mamlakatning turli hududidan taniqli shoir va yozuvchilar, adabiyot vakillari hamda yosh ijodkorlarni bir davrada jamladi. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Sayyid, O‘zbekiston xalq shoirlari Usmon Azim, Xosiyat Bobomurodova, shuningdek, Rustam Musurmon, Farida Afro‘z, Zebo Mirzo, Salim Ashur, Muhiddin Abdusamad, Shodi Otamurod, Nargiza Odinayeva, Muslim Musallam, Islom Ali, Rashid Xo‘jamov, Rahmat Bobojon singari turli avlod vakillari qatnashgan mushoirada Vatan, inson qadri, milliy o‘zlik va yurt hayotidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq she’rlar yangradi. Bu yerda e’tibor berishga arziydigan jihat she’rlarning mavzusi bilan chegaralanmaydi. Turli yosh, hudud va ijodiy tajribaga ega odamlarning bir davrada uchrashuvi adabiyotning tabiiy rivoji uchun zarur muloqotni yuzaga keltiradi.

Ustoz shoirning she’rni qanday qurishi, bugungi voqelikka qanday qarashi bilan endigina o‘z uslubini izlayotgan ijodkorning qarashi bir xil bo‘lishi shart emas. Ularning farqi ham adabiy jarayonning bir qismi. Avlodlar almashgani sari mavzular saqlanib qolishi mumkin. Ularni ifodalash yo‘sini va inson tajribasi o‘zgaradi.

Menimcha, an’ana o‘tmishda yaratilgan shakllarni o‘zgarishsiz takrorlash uchun berilgan tayyor namuna emas. Zamonaviy ijodkor undan oldin nima yaratilganini bilishi va shu tajriba bilan muloqotga kirishishi kerak. Ruhi baland, tanqid qilish nisbatan qiyin bo‘lgan mavzuni she’rga olib kirishning o‘zi hali adabiy natijani kafolatlamaydi. Vatan haqida yozilgan har qanday matn yaxshi she’r bo‘lib qolmaganidek, zamonaviy o‘zgarishlarni tilga olishning o‘zi asarga yangi ruh bag‘ishlamaydi. Demak, davrni she’riyatda aks ettirish uchun uning hodisalarini sanashdan ko‘ra, o‘sha davr insonda qanday haqqoniy kechinma va savollar tug‘dirayotganini topish muhimroq.

Bugungi O‘zbekiston ham katta ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy-ma’rifiy jarayonlarni boshdan kechirmoqda. She’rdan boshqa hamma matnlardagi raqamlar shundoq ham uning miqyosini ko‘rsatyapti. She’riyat oldida boshqa talab turibdi: taraqqiy topayotgan muhit, makon va zamon ichida odamning o‘zi qanday o‘zgarayotganini ko‘rish, yozish va tushuntirish.

Chunki mamlakat tushunchasi oxir-oqibat inson hayotida konkretlashadi. Taraqqiyot haqidagi katta gaplarning qiymati ham odamning kundalik hayotida qanday aks etayotgani bilan baholanadi. Shu tufayli Vatan va inson mavzularini bir-biridan uzoq qo‘yib bo‘lmaydi. Yurt xususidagi jiddiy she’r bir vaqtning o‘zida odam haqidagi she’r hamdir: uning xotirasi, tili, ota-onasi, farzandi, mehnati, orzusi, armoni va o‘z kelajagini qanday tasavvur qilishi haqida.

“Yangi O‘zbekiston mushoirasi”da Vatan, yurt taqdiri, milliy o‘zlikning yonma-yon kelishi shu jihatdan mantiqli. Milliy o‘zlik ham muzeyda saqlanadigan, tomosha qilish mumkin, biroq teginib bo‘lmaydigan chinni buyum emas. Har bir avlod uni o‘z tajribasida qayta anglaydi. O‘tmishdan nimani olib kelayotgani, bugungi hayotdan nimani qabul qilayotgani, kelajak uchun nimani muhim deb bilayotgani orqali unga yangicha mazmun-mohiyat qo‘shadi.

Xorazm uzoq davrlar davomida ilm, yozuv, musiqa va adabiy tafakkur shakllangan hududlardan biri bo‘lib kelgan. Bugungi ijodkorlarning shu makonda zamonaviy O‘zbekiston haqida gapirishi o‘tmish bilan hozirgi kun o‘rtasida sun’iy chegara tortmaslik kerakligini eslatadi. Madaniyat yashashi uchun merosning mavjudligi kifoya qilmaydi. Keyingi avlod u bilan gaplashishi, undan o‘z savollariga javob izlashi va o‘z davrining tajribasini unga qo‘sha olishi kerak.

Shu ma’noda, mushoira Xivada tugamasligi ham muhim. Loyiha yil davomida respublikaning boshqa hududlarida davom ettirilishi ko‘zda tutilgan. Agar bunday uchrashuvlar haqiqiy adabiy muloqotga aylansa, adabiyot markaziy davralardan tashqariga chiqadi. Turli hududlardagi ijodkorlar va o‘quvchilar bir-birini osonroq topadi.

“Yangi O‘zbekiston mushoirasi”ning istiqboliga Vatan haqida qancha she’r o‘qilgani yoki nechta taniqli ijodkor sahnaga chiqqani mezoni bilan qaramaslik kerak, nazarimda. Turli avlod va hudud vakillari bugungi O‘zbekistonni qanday ko‘ryapti, his qilyapti va bu tajribalar o‘quvchi bilan qanchalik rost, badiiy jihatdan ishonarli muloqotga kirishyapti — asosiy masala shunda.

Boisi, ta’kidlanganidek, har bir davr raqamlar, hujjatlar, suratlar orqali izini tarixda qoldiradi. Bularsiz muayyan bir zamonning manzarasini tiklab bo‘lmaydi. Uning odamlar qalbida qanday yashaganini bilish uchun esa boshqa bebaho manbalar ham kerak.

She’r shular jumlasidan.

Azizbek YUSUPOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-946.
29323 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Bekqul Egamqulov
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33
E’lonlar bo‘limi: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz
Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.